

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

**BITIRUVCHI KURS MAGISTRANTI
BERDIYEVA ZEBINIS Oning**

“MUSTAQILLIK DAVRI SHERIYATIDA TASAVVUFIY OHANGLAR”

mavzusidagi

**5 A- 220101 – Adabiyotshunoslik yo h alishida magistr akademik darajasini
olish uchun yozgan**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

(2015-2016- o‘quv yili)

**Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi, dotsent
M. Rajabova**

Buxoro – 2016

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

FILOLOGIYA FAKULTETI

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Fakultet dekani _____ A.A.Haydarov

“ _____ ” _____ 2016-y.

**BITIRUVCHI KURS MAGISTRANTI
BERDIYEVA ZEBINISONING**

“MUSTAQILLIK DAVRI SHERIYATIDA TASAVVUFIY OHANGLAR”

mavzusidagi

**5 A- 220101 – *Adabiyotshunoslik yo'nalishida magistr akademik darajasini
olish uchun yozgan***

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

(2015-2016- o'quv yili)

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

QILICHEV B. E.

Rasmiy hakamlar:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

AHMEDOV A. R.

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

QURBONOVA G.N.

Buxoro – 2016

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Tasavvuf – islom dini hokimlik qilgan o'lkalardagi xalqlarning axloqiy, madaniy hayoti, falsafa va badiiy tafakkuriga sezilarli ta'sir o'tkazgan ko'p qirrali murakkab ta'limot. SHuning uchun tasavvuf bir necha asrlik o'tmish adabiyotimizning Ahmad YAssaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Alisher Navoiy singari ba'zi vakillari ijodiyotining ichdan harakatlantirgan bo'lsa, boshqa yozuvchi va shoirlarimiz adabiy merosidagi ayrim asarlarning tug'ilishiga asos bo'lgan.

Bizningcha, tasavvufning SHarq xalqlari o'rtasidagi ancha keng tarqalib, ko'pgina ulug' yozuvchi va shoirlarning e'tiborini o'ziga jalb qilishi, eng avvalo, unda ahloqiy komillik, ma'rifat, ishq, go'zallik va tafakkur alohida ahamiyat berilganligi bilan izohlanmog'i kerak.

Mustaqillikdan keyingi yillarda diniy-tasavvufiy ruh bilan yo'g'rilgan bir qancha asarlar dunyo yuzini ko'rayotganini alohida mamnuniyat bilan ta'kidlab o'tish joiz. Tasavvuf ta'limotining maqsadi insonni ruhiy, ma'naviy jihatdan poklash, ya'ni komil insonni tarbiyalashdir. Demak, bugungi yosh avlod mumtoz va zamonaviy adabiy asalarda ifodalangan g'oyalarni anglashi, tushunishi, tasavvufiy mavzularning badiiy talqinidan xabardor bo'lishi, uning komil inson tarbiyasi uchun dasturulamal bo'lib xizmat qilishiga dalolat beradi. Prezidentimiz I.A.Karimov "Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir"[1.136]¹ deganidan mavzuning ma'naviy jihatidan naqadar dolzarb ekanligini anglash qiyin emas.

Tasavvuf adabiyoti insonda iroda, sabot, ilm, ibodat, oqillik, xokisorlik, sabr, qanoat, g'ayrat, kamtarlik, adolat, saxiylik, halimlik, mardlik, hayo, pokizalk, shirinso'zlik, mehr-oqibat, shafqat, umuman inson qalbini, ruhini poklashga xizmat qiladigan, uni Ollohga yaqinlashtiradigan komil insonga xos barcha ezgu fazilatlarni singdirish bugungi kunda yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

¹. Қавс ичидаги биринчи рақам адабиётлар рўйхатидаги адабиёт рақамини, иккинчи рақам бетини кўрсатади. Бундан сўнг киритмалар шу тахлитда бериллади.

Insoniyat tarixi taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshgan buyuk soʻz sanʼatkorlari asarlaridan namunalar bugungi kunda oliy va oʻrta maxsus umumiy oʻrta taʼlim oʻquv dasturlariga kiritilgan. Jumladan, biz tadqiq obʼyekti sifatida oʻrganayotgan ijodkorlar: Oʻzbekiston Qahramoni Oʻzbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov, Sirojiddin Sayyid, Jamol Kamol Farida Afroʻz ijodi mustaqillik davri adabiyoti boʻlimida oʻrganilishi tadqiq qilinayotgan magistrlik dissertatsiyasining dolzarbligini oshiradi.

Xullas, yuqorida aytilgan va qayd etilgan haqiqat sheʼriyatni tasavvufga, tasavvufni sheʼriyatga yaqinlashtirgan va oʻrtada nihoyatda teran, nihoyatda mustahkam birlik paydo qilgan ijtimoiy, siyosiy, falsafiy va maʼnaviy-estetik omillardan biridir. Mana shuning uchun ham E.E.Bertels, “Tasavvuf adabiyotini tadqiq etmay turib musulmon SHarqi madaniy hayoti haqida yorqin tasavvur hosil qilish mumkin emas...” [9.23]¹ - deganda toʻla haq edi. SHu bois, magistrlik dissertatsiyamizda tasavvuf taʼlimotining oʻzbek sheʼriyatiga taʼsiri, mazkur taʼlimotning oʻlmas gʻoyalarning sheʼriyatda yangicha kashf qilinishi masalasini tadqiq etish ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsad va vazifasi. Mustaqillik davri sheʼriyati va uning namoyandalari yaratgan asarlarning oʻzbek milliy sheʼriyatda tutgan oʻrni, badiiy salmogʻi, davr muammolarini ifodalashda oʻziga xosligi, asar markazida turgan qahramonning maʼnaviy-estetik olami kabi tomonlariga ilmiy baho berish va tasavvufiy qarashlar masalasi fonida Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Sirojiddin Sayyid, Farida Afroʻz kabi ijodkorlar lirikasini tahlil etish ishning asosiy maqsadidir. Maqsadimizni amalga oshirish uchun qoʻyidagi vazifa qilib belgiladik:

- Soʻnggi yillar sheʼriyatining oʻziga xos xususiyatlarini shakllanishida, ayniqsa, milliylik tuygʻularini teranlik kasb etishida anʼanalar samarasini tahlil etish;

- Mustaqillik davri sheʼriyatida tasavvuf falsafasiga qiziqishning orta borayotganligi, diniy mavzularning ishlanishi, hadislariga sheʼriy sharh yozish

¹ Ўрта Осий халқлари хурфикрлиги тарихидан. Тошкент, 1990.

an'analarini qayta harakatga kelishi, bulardan ko'zda tutilgan maqsad kitobxon ma'naviy olamiga ta'sir etish ekanligini izohlash

- Mumtoz va hozirgi zamon she'riyatida aks etgan axloqiy qadriyatlarga ijodkorlarning yangicha baho va talqinlarini ko'rsatib berish;
- Ushbu mavzuga bag'ishlangan she'rlarda iymoniy soflik, e'tiqod, barcha insonlarning teng ko'rish kayfiyatlari chuqur ishlana boshlangining sabablarini izohlash;
- Tasavvuf falsafasi ruhida yozilgan she'rlar markazidagi lirik "men" tabiatida ruhiy poklikka intilish, Haqqa etishi, Yaratganning jamolidan ruhiy – ma'naviy ziyo olish harakatlari qabarib turganligini tahlillar jarayonida ko'rsatib berish;
- Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Sirojiddin Sayyid, Farida Afro'z kabi ijodkorlar she'riyatida tasavvuf ohanglarni qay yo'sinda bo'y ko'rsatishini tahlil etish;
- Mazkur ijodkorlarning tasavvuf falsafasi ruhida yozilgan she'rlarida ilgari surilgan g'oya va lirik "men" tabiatini tekshirish;
- Ruhiy poklikka intilish, borliqni e'zozlash to'yg'ularini mustaqillik davri she'riyati misolida tahlil va talqin qilish.

Magistrlik dissertatsiyasining yangiligi: Tasavvuf atamasi, mafkura va estetikasi, tasavvufiy maqom va ma'no haqiqatlarini o'rganish barobarida Mustaqillik davri she'riyatining yirik namoyandalari Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Sirojiddin Sayyid, Farida Afro'z she'riyatida tasavvufiy ohang va she'riyati uchun xos bo'lgan g'oyaviy-badiiy qimmatini tadqiq etish ishning yangiligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Istiqloldan keying o'zbek she'riyati sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, nisbatan ijodiy erkinlik darajasi, milliy qadriyatlarimizning qayta tiklanishi, mafkuraviy yakka hokimlik asoratlarini bir qadar cheklab qo'ydi, badiiy izlanishlarning falsafiy-intellektual saviyasini oshirdi hamda shakliy-uslubiy, mazmuniy miqyoslarini yanada boyitdi. Ajdodlarimizning boy ilmiy va adabiy merosi ham ma'naviy - axloqiy, ham ma'rifiy tomondan o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Jumladan, A.Oripov she'riyatida diniy g'oyalarning xalqona ohang kasb etishi, J.Kamol, S.Sayid,

E.SHukur, F.Afro‘z izlanishlarida tasavvufiy aqidalarga moyillikning ortishi M.Abdulhakim ijodida bedilona ifodaning shakllanishi Faxriyor talqinlarida rumiyona falsafiylikning kuchayib borayotganligi ko‘zga tashlanadi. Xullas, zamonaviy o‘zbek she‘riyati yangi xususiyatlariga ega bo‘ldi va bu xususiyatlar qator tadqiqotlarning yaratilishiga sabab bo‘ldi [15,38,40,39,43,25].

Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati: Tasavvuf maslagi va tasavvufiy she‘riyat necha asrlar mobaynida turli ijtimoiy-siyosiy guruh va dunyoqarashga ega xalq ommasini qiziqtirib kelgan. Bu qiziqish va e‘tibor bugun ham so‘ngani yo‘q. Xususan, davlatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng tasavvuf va irfoniy she‘riyat vakillari ijodiyotiga bo‘lgan qiziqish yanada ko‘chaydi. Ushbu ish, eng avvalo, tasavvuf mafkurasi, estetikasi, istilohlari, bu ta‘limotning xalqimiz ijtimoiy, ahloqiy, falsafiy, madaniy va ma‘naviy fikr tarixida egallagan mavqei haqida ma‘lumot berishi bilan ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, so‘ngi yillarda tasavvuf ta‘limoti o‘zbek she‘riyatida ham mavqeni saqlab qolganligi, ayniqsa, Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Sirojiddin Sayyid, Farida Afro‘z she‘riyati misolida kuzatish, ular she‘rlarida bu sohadagi o‘ziga xosliklarni ilk bor keng yoritish jihatidan ham nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Magistrlik dissertatsiyasining manbai: Ishda tasavvuf masalalariga bag‘ishlangan diniy, ilmiy, badiiy xarakterdagi manbalar, hamda Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Sirojiddin Sayyid, Farida Afro‘zning she‘riy to‘plamlari va adabiyotshunoslarning mazkur ijodkorlar ijodi bo‘yicha tadqiqotlari tashkil etadi.

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi: Ish “Kirish”, ikki bob, to‘rt fasl, “Xulosa” va “Adabiyotlar ro‘yxati”dan iborat.

I BOB.

ILOHIY-IRFONiy MANBALAR VA O‘ZBEK SHE’RIYATI

I.1. O‘zbek tasavvuf she’riyatining shakllanishi va taraqqiyoti.

Har bir xalqning adabiyoti uning milliy ruhi, tafakkur tarzi, ustozlar tajribasi, ma’naviy va axloqiy-ma’naviy, diniy-ilohiy tushuncha va qadriyatlariga tayanadi. SHuning uchun ularni nazardan chetga surib adabiy jarayon mohiyatini belgilash ham, adabiy an’analarning badiiy ijoddagi roli va ahamiyatini to‘g‘ri baholash ham mumkin emas. Taniqli rus adabiyotshunosi A.Bushminning "adabiyot o‘zining qonuniy taraqqiyot harakatida o‘tmishda erishilgan fikr tajribasini o‘zlashtiradi (assimilyasiya qiladi)"[10.152] – degan fikri ham buni tasdiqlaydi. Zero, badiiy ijodda ma’no, tuyg‘u yoki haqiqat yo‘q joydan kashf etilmaydi. Bunda din va falsafa, ma’rifat va ma’naviyat, tafakkur va ahloqiy qadriyatlarning ham o‘z o‘rni va mavqei bo‘ladi. Ana shu bois XX asr oxirlariga kelib til, tarix, din va tasavvuf ta’limotiga yangidan qiziqish ehtiyoji tug‘ildi.

Tarixdan yaxshi ma’lumki, tasavvuf o‘zbek xalqining ijtimoiy, madaniy, falsafiy va adabiy hayotiga kuchli ta’sir o‘tkazgan ta’limotlardan hisoblanadi. Mumtoz adabiyotimizning namoyandalaridan ko‘pchiligi ma’lum bir tariqatning vakillari bo‘lishgan. Bu esa o‘zbek adabiyotidagi g‘oya va obrazlar olamining kengayishi va boyishiga yordam bergan.

Ma’lumki, Ahmad YAssaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy, So‘fi Olloyor singari ijodkorlarimiz sof diniy-tasavvufiy adabiyotining vakillari bo‘lgan. CHunki she’r ularga irfoniyl fikr-qarashlar talqini va targ‘ibi uchun muhim bir vosita edi. Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari san’atkorlarga esa tasavvuf she’riyatni rivojlantirish uchun o‘ziga xos bir fikr, tuyg‘u manbai edi.

Tasavvufning adabiyot, xususan, she’riyat bilan, she’riyatning tasavvuf bilan yaqinlashuvi tasodifiy hodisa bo‘lmagan. CHunki xuddi adabiyot singari tasavvuf ham inson axloqi, ko‘ngli, ruhi va tafakkuri bilan mashg‘ul bo‘lishni qo‘llab-quvvatlagan. Bundan tashqari, filologiya fanlari doktori Najmiddin Komilov ta’kidlaganidek, «Tasavvuf bilan badiiy ijod orasidagi yaqinlikni sufiylar va

ijodkorlarning ruhan yaqinligidan ham izlasa bo‘ladi» [18.156]. Olim so‘fiylikdagi «jazba» iste’dodi bilan ijodkorlikdagi jazba muvofiqligiga diqqatni qaratib, yana shunday deydi: «Kishi qalbida Ilohni bilish muhabbati, Unga etishish zavqi shu qadar kuchli bo‘ladiki, u o‘zini to‘xtatib turolmaydi. Hamma narsani unutib, Mahbuba jamoliga talpinadi... Ana shu dard - jazba tushunchasi darveshlik bilan shoirlikni, keng ma’noda esa tasavvuf bilan ijod xususiyatlarini bir-biriga yaqinlashtiradi. YA’nikim, darveshlik iste’dodi, g‘ayri tabiiy xislatga molik bo‘lishi shoirlarga ham xosdir demoqchimiz» [18.136].

Tasavvuf islom dini hokimlik qilgan o‘lkalardagi xalqlarning axloqiy, madaniy hayoti, falsafa va badiiy tafakkuriga sezilarli ta’sir o‘tkazgan ko‘p qirrali murakkab ta’limot. SHuning uchun tasavvuf haqiqat va holatlar ifodasi bir necha asrlik o‘tmish adabiyotimizning Ahmad YAssaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy singari ba’zi vakillari ijodiyotining ichdan harakatlantirgan bo‘lsa, boshqa yozuvchi va shoirlarimiz adabiy merosidagi ayrim asarlarning tug‘ilishiga asos bo‘lgan.

Bizningcha, tasavvufning SHarq xalqlari o‘rtasidagi ancha keng tarqalib, ko‘pgina ulug‘ yozuvchi va shoirlarning e’tiborini o‘ziga jalb qilishi, eng avvalo, unda ahloqiy komillik, ma’rifat, ishq, go‘zallik va tafakkur alohida ahamiyat berilganligi bilan izohlanmog‘i kerak.

Xullas, yuqorida aytilgan va qayd etilgan haqiqat she’riyatni tasavvufga, tasavvufni she’riyatga yaqinlashtirgan va o‘rtada nihoyatda teran, nihoyatda mustahkam birlik paydo qilgan ijtimoiy, siyosiy, falsafiy va ma’naviy-estetik omillardan biridir. Mana shuning uchun ham E.E.Bertels, “Tasavvuf adabiyotini tadqiq etmay turib musulmon SHarqi madaniy hayoti haqida yorqin tasavvur hosil qilish mumkin emas...” [9.32]-deganda to‘la haq edi.

Tasavvuf tadrijiy taraqqiyotga ega bir ta’limot bo‘lib, islom olamida VII asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan. Dastlab u zohidlik harakati ko‘rinishida kurtak yozdi. Zohidlar qanoat va zuhdni asosiy maqsad qilib, saroy ahli va sarvatdorlar (boylar) axloqiga qarshi norozilik belgisi sifatida tarkidunyochilik g‘oyasini targ‘ib etib, ijtimoiy faoliyatdan butunlay chetlashganlar, surunkali toat-ibodat bilan shug‘ullanganlar. Kufa, Bag‘dod, Basra shaharlarida tarki dunyo qilgan zohidlar

ko‘p edi, ularning obro‘-e‘tibori xalq orasida katta edi. CHunonchi, Uvays Qaraniy, Hasan Basriy kabi yirik so‘fiylar aslida zohid kishilar edilar, shuning uchun bu zotlarning nomi shayxlar va so‘fiylar haqidagi tazkiralarda zohid sifatida tilga olinadi.

Tasavvuf shahar hunarmandlari, qadimdan madaniyati rivojlanib kelgan ilm-ma‘rifat markazlarida taraqqiy etgan. Qayd etish joizki, tasavvuf futuvvat bilan qo‘shilgan holda rivojlangan. Futuvvat ahli o‘z hayotlarini do‘st-birodarlari, yaqin kishilarining hojatini chiqarish, muhtojlarga moddiy va ma‘naviy yordam berishga baxshida etgan odamlar bo‘lib, aksar oddiy xalq ichidan etishib chiqqan hunarmandlar, olim va san‘atkorlar edilar. Ular orasida sipohiylar, nom chiqargan pahlavonlar ham bo‘lib, shaxsiy hayotda halol yashash, zohiran va botinan pok bo‘lish, nokas, nomardlarga yaqinlashmaslik uchun intildilar. Futuvvat ahli, ya‘ni javonmardlar tasavvufni nazariy ta‘limot, maslak sifatida qabul qilib oldilar, o‘z navbatida, ko‘pgina shayxlar futuvvat qoidalarini suluklari talablariga singdirib yubordilar. SHu tariqa, tasavvuf musulmon SHarq mamlakatlari ijtimoiy va ma‘naviy hayotiga chuqur kirib bordi, fan, madaniyat va adabiyot rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. XV asrdan boshlab SHarqning deyarli barcha nufuzli shoir va yozuvchilari, mutafakkir va olimlari tasavvufdan oziqlanib uning insonparvarlik va haqsevarlik g‘oyalaridan ruhlanganlar.

Tasavvuf insonni kamolot sari etaklarkan, u inson hayotiga chuqurroq singdi. Tasavvufning SHarqda keng tarqalishi buyuk bir she‘riyatning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Robiya Adviya, Mansur Halloj kabi ulug‘ so‘fiylar ijodi bilan boshlangan so‘fiyona ash‘or X-X asrlarga kelib ulkan bir adabiyotga aylandi, o‘ziga xos obrazlar, alohida turli-tuman ramzlar shakllandi. Tasavvuf g‘oyalari keng tarqalgandan keyin u shoirlarning e‘tiborini qozondi. Tasavvufning ilohiy ishq, go‘zal axloq va komil inson umidi haqidagi g‘oyalari she‘riyat g‘oyalariga aylandi. Tasavvufning yor, oshiq, pir, Xizr, faqr, so‘fiy, darvesh, rind, abror, g‘arib, miskin, orif kabi alohida o‘ziga xos qahramonlari yuzaga keldi.

Tasavvuf birinchi navbatda, Islom haqiqatlarini Qalb va Vijdon tarafidan his etish hamda mushohada qilishdir. Tasavvuf inson ruhining soflanib, go‘zallashib,

yaxlit va parchalanmas holatga etganda, zamon va makon to'siqlarini orqaga qoldirib qanday kamolot hosil etishini ko'rsatuvchi ta'limot. Mana shuning uchun ham Ibn Sino "Tasavvuf bu kamolot darajasiga etishgan Ruhning buyuk sevinchidir. O'ziga xos Aql, Oqil va ma'qul bo'lgan Ollohdan chiqqan ma'qullarni, ya'ni sarvari koinot ato etgan sifatlarni bilmoq va tushunmoq tasavvuf demadir",-degan edi.

Tasavvuf so'zining lug'aviy va istilohiy ma'nosi nimadan iboratligi to'g'risida hunuzgacha yagona xulosaga kelingani yo'q. Husayn Voiz Koshifiyning yozishicha, tasavvuf tariqat maqomlaridan biri hisoblanadi, tasavvuf so'zining yuzaga kelishi tarixi xususida esa ixtiloflar bor. Ba'zi birovlar uni islom dunyoga kelgandan so'ng paydo bo'lgan deb aytishgan. Vaholanki, tasavvuf atamasi islomdan oldin ham mavjudligi "Uns al-sufiya" kitobida naql etilgan ekan.

Ko'pchilik tadqiqotchilar tasavvuf (jumladan, so'fiy ham) arabcha "suf" dan kelib chiqqan bo'lib, yung mato –xirqa degan qarorga kelishgan. Boshqa birlari esa uni yunon tilidagi "safos" –donishmand so'zidan olinganligini aytganlar Bu so'zni sof – poklik, ya'ni axloqiy tozalanish va ruhiy kamolot mazmunida tushuntirgan olimlar ham bor.

A.Krmskiyning aniqlashiga ko'ra, so'fiy so'zi VII asrning o'rtalaridan boshlab tadbiiq etila boshlangan. Va u, asosan, komil e'tiqodli musulmon darveshlarga nisbatan qo'llanilgan [18.45].

Tasavvuf ahli – Olloh muhabbatiga berilgan oshiqlar. Ular dunyo go'zalligi, hayot mazmuni, inson qismati va ma'naviy – ruhiy kamolotini bevosita haqiqiy ishq mohiyatiga bog'liq ravishda idrok etganlar hamda ta'rifu tavsif qilganlar. Ammo bu yo'ldagi urinish va intilishlar oson kechmaganidek, barcha kishilar tomonidan ham qo'llab-quvvatlanmagan. Chunki ollohsevarlik maslagiga hamma ham ishonavermas va uni barcha odamlar ham bir xilda qabul qila olmasdi. Imom G'azoliyning ta'kidlashicha, "hatto ba'zi olimlar buning imkonini (ya'ni ilohiy ishq imkonini) atayin inkor etib, "Olloh sevgisi demak, unga ibodat demakdir. CHin ma'noda Ollohgga oshq va muhabbat maholdir.

Xuddi islomdagidek, tasavvufdagi barcha amaliy maqomlar ilm, hol va amaldan maydonga kelgan.

Tasavvufda Tangri dargohiga yuksalishning yo‘llari uchta:

1. Ollohning sifatlarini egallamoq – bu, Boyazid Bistomiyni yo‘li.
2. Ilohiy xislatlardan zavqlanmoq-bu , Vositiyni yo‘li.
3. Tangri bilan birlashmoq-bu , Mansur Xalloyning yo‘li.

Tasavvuf ta’limotida ham moddiy dunyo jarayonlariga aralashgan holda Haqni unutmaslik kerakligi alohida ta’kidlanadi. Mazkur ta’limot bag‘rida shakllangan tariqatlar, ularning bosqichlarida xilma-xillik, tafovutlar kuzatilsa-da, ammo maqsad bir xil, ya’ni ruhni asl makoniga qaytarish, o‘zlikdan kechish bilan haqiqiy o‘zlikka erishish, insonning ilohiylashuviga etishishdir.

Tasavvuf she’riyati o‘zining obrazlar sistemasini yaratishda zohiran yangilik yaratmagan bo‘lsa hamki, u kashfiyotchilikning yangi yo‘lini topgandi. U xoh og‘zaki ijodiyoti, xoh yozma adabiyot, xoh din – qaerda poetik obraz uchun so‘z yoki atama olmasin, ularning barchasiga botiniy ma’no baxsh etadi. So‘z va timsol tarkibidagi botiniy o‘zgarish va boyish, tariqatga mansub shoirlarning she’rlarini o‘zgacha bir qarashda o‘qib tushunmoq va talqin qilmoqni talab etdi .

Aytaylik, “gul”, “bulbul”, “sham”, “parvona”, “qatra”, “bulut” kabi oddiy va odatiy timsollar orqali ham Xudo va insonlar orasidagi yaqinlik, birlik, fano va baqoga o‘xshash masalalar tasvirlanardi. Oqibatda esa, ilmda qayd etilganidek, bir badiiy asarda go‘yo ikkita mustaqil matn paydo bo‘lganki, ulardan biri tasvir tamoyiliga mansub she’riy tekst bo‘lsa, ikkinchisi, mazmun talqini zaminidan hosil bo‘ladigan tasavvufiy matn edi. SHuning uchun tasavvufiy she’riyat namunalari o‘qib, o‘rganilganda shu ikki “matn”ga tayanib ish yuritmoq kerak bo‘ladi.

Tasavvuf va tasavvuf she’riyati o‘tmish hayot, o‘tmishdagi dunyoqarash mahsulidir. Tarixiy hodisa sifatida bir necha asrlar mobaynida o‘z qimmatini va ahamiyatini saqlab kelgan jihatlar bilan bir qatorda, tasavvufda bugun uchun ahamiyati kam yoki eskirgan g‘oyaviy tamoyillarning bo‘lishi ham muqarrar. Va buni inobatga olmoq shart. Ammo bizning nazarimizda, tasavvuf bilan jiddiy

qiziqish va tasavvuf haqiqatlarini tadqiq qilishning hozirgi kun nuqtai nazaridan, ayniqsa, quyidagi jihatlari juda muhim hisoblanadi.

Birinchidan, tasavvuf o'zbek xalqining uzoq asrlik boy madaniy va adabiy merosini chuqur bilish, ma'naviy qadriyatlar, gumanistik ideallar xazinasini bo'lmish bu merosning g'oyaviy-badiiy fazilatlarini teran tadqiq etib, ibratli xulosalar chiqarishga yaqindan yordam beradi.

Ikkinchidan, dunyoga mashhur shoirlar ijodiyotini puxta bilish SHarq va G'arb o'rtasidagi ilmiy, madaniy, adabiy aloqalar xususida keng va tugal tasavvurga erishmoq ham ma'lum ahamiyatga egadir.

Uchinchidan, o'zining tamalini ma'rifat va madaniyat deb belgilagan mustaqil O'zbekiston ta'lim va tarbiya ma'nosida ham tarixiy bir vazifani zimmasiga olgandirki, bu-oqil va dono, bilimdon va tashabbuskor, vijdoni pok va vatanparvar komil insonlar jamiyatini barpo etmoqdir. Ayni shu sharaflilikni amalga oshirishda ham tasavvuf va tasavvufiy she'riyatdagi axloqiy-didaktik qarashlar, umri boqiy ishqiy – falsafiy tushunchalar, xususan, komil inson masalasiga doir fikr va xulosalar nihoyatda foydali va qimmatga ega.

Ayni shu nuqtai nazardan so'nggi yillar she'riyatida mumtoz an'analarning davom etishi sabablari kuzatish va uni tahlil etish dolzarb mavzulardan sanalishi tabiiydir.

I.Haqqul "Tasavvuf va she'riyat" kitobida: "Inson hayoti nechog'li o'tkinchi, kulfat va mashaqqatlarga to'la bo'lmasin, u komillikka intilishi shart. Kamolot yo'liga tushgan insonni vijdon ruhiy og'riqlarga giriftor etib, alamga yuzma-yuz qilib qo'yadi, yurakni gunoh va qo'rquv, shubha va ishonch oralab olib o'tadi. Uyg'oq vijdon eng oxirgi chegaralargacha odamni yog'dulantiradi ... U erkin ruh bilan yashash sirlarini ochadi, aqliy toliq ishlarini engib, mutelik zanjirini sindiradi. Bu vijdon eng noiloj, eng kulfatli vaziyatlarda ham yo'lsizlikdan xalos etadi. Bu shaxsning o'z vijdoniga borish yo'li deb atasa to'g'ri bo'ladi. SHu yo'lni topgan odamgina xudoga intiladi. Talpingan sayin esa o'ziga nisbatan murosasizliklari ortadi",-deb yozadi [29.17].

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf Sharq fikriy taraqqiyotidagi ko'p asrlik tajribalari qamrab olib, uni rivojlantirdi, din va falsafa, hikmat va vahdat kalom va hadis ilmlarini birlashtirdi, ilohiy ilmlar bilan dunyoviy ilmlarni o'zaro bog'lashga harakat qildi. Natijada tasavvuf Sharq kishisining tafakkur tarsi va axloq normasini belgilaydigan hodisaga aylanib qoldi [18.15]. SHu ma'noda, necha asrlar o'tishiga qaramasdan mazkur ta'limot o'zbek she'riyatining asosiy manbalardan biri bo'lib kelmoqda. Ijodkorlarimiz bu o'lmas manbalarga murojaat qilish orqali ilohiy-irfoniy g'oyalarni targ'ib qilish va ular orqali bugungi yosh avlodni tarbiyalash vazifasini so'z san'ati orqali bajarib kelmoqdalar

II.2. Istiqlol davri o'zbek she'riyatida an'ana va ijodiy yangilanish

Istiqloldan keyingi o'zbek she'riyati sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, nisbatan ijodiy erkinlik darajasi, milliy qadriyatlarimizning qayta tiklanishi mafkuraviy yakkahokimlik asoratlarini bir qadar cheklab qo'ydi, badiiy izlanishlarning falsafiy-intellektual saviyasini oshirdi hamda shakliy-uslubiy, mazmuniy miqyoslarni yanada boyitdi. Ajdodlarimizning boy ilmiy va adabiy merosi ham ma'naviy-ahloqiy, ham ma'rifiy tomondan o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Jumladan, A.Oripov she'riyatida diniy g'oyalarning halqona ohang kasb etishi, S.Sayid, E.SHukur, A.Mahkam izlanishlarida tasavvufiy aqidalarga moyillikning ortishi, M.Abdulhakim ijodida bedilona ifodaning shakllanishi, Faxriyor talqinlarida rumiyona falsafiylikning kuchayib borayotganligi ko'zga tashlanadi.

Uzoq vaqt taqiqlanib kelingan diniy-tasavvufiy mavzularning adabiyotda qayta yuz ko'rsata borishi masalalari bugungi adabiyotda sifat jihatidan o'zgarishlar qildi. Badiiy adabiyotdagi bunday sifat o'zgarishlarning tug'ilishiga sabab sho'rolar siyosati davrida zararli deb topilgan asarlarning qayta nashr etilishi bo'ldi. Qur'oni Karimning o'zbek tiliga tarjima qilinishi, Payg'ambarimiz hadislarining chop etilishi, dini islomning at-Termiziy, Ismoil Buxoriy kabi buyuk nazariyotchilari, Ahmad YAssaviy, Sulaymon Boqirg'oni, So'fi Olloyor kabi

tasavvuf shoirlari asarlarining chop etilishi soʻz sanʼatiga yangi, toza, qadimiy mavzular shabadasini olib kirdi.

Xalq hayotining burilish pallalarida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maʼrifiy, iqtisodiy-maʼnaviy sohalarda tub oʻzgarishlar kuzatiladi. Millat ruhining koʻzgusi boʻlgan adabiyot ham bunday sharoitda jiddiy oʻzgarishga uchraydi. Hozirgi oʻzbek sheʼriyatidagi yangiliklar, izlanishlar mustaqillikning qoʻlga kiritilishi tufayli milliy tafakkurda paydo boʻlgan oʻzgarishlar bilan bogʻliq. Milliy-badiiy tafakkurning yangilanish tufayli 90-yillardan eʼtiboran oʻzbek adabiyotida badiiy asar til, adabiy matnning qurilish, ritm, vazn, qofiya, sheʼriy sanʼatlarni qoʻllash odatdagidan boshqacha maʼno kasb eta boshladi. Bu davrda ruhni anglatishga boʻlgan intilish, ziddiyat va qarama-qarshiliklar mohiyatiga chuqurroq kirib borishga harakat, ranglar uygʻunligi va tasvirning quyuq boʻlishiga eʼtibor koʻchaydi. SHoirlar ijodida olam hodisalariga, hayot manzaralariga turli tomondan yondashish keng yoyildi.

XX asrning 90-yillari shoirlarida ijtimoiy faollikdan koʻra ruhiy faollik ortiq boʻldi. SHoirlar koʻproq ichki sezgilarining jilvalarini koʻrsatishga, koʻngil manzaralarining tasvirini berishga intila boshladilar. Oʻzbek sheʼriyatida ijodkorlarning oʻz ichki dunyosi sirlarini inkishof etishga kuchli urinishlari koʻzga tashlandi. 90-yillar sheʼriyatiga modernizim, formalizim, simvolizim singari yoʻnalishlarga xos belgilar kirib keldi. Buning oqibatida sheʼrning shakli, shoirlarning uslubi oʻzgardi va sheʼriyat oldingi davrlarga nisbatan ranginlashdi. Ruhiyat manzaralarini aks ettirish ehtiyoji badiiy matn tiliga mavhumlik unsurlari va serqirra ishoralar singdirdi.

90-yillar oʻzbek sheʼriyatida ijodkorlarning kechinmalari va ruhiy holatiga eʼtiborning kuchayishi **shakliy** izlanishlarning koʻpayishiga olib keldi. 80-yillar sheʼriyatida boʻy koʻrsata boshlagan bu holat 90-yillarga kelib, yosh ijodkorlarning deyarli barchasida kuzatila boshladi. **SHakliy** izlanishlar samarasi boʻlgan va oʻzbek kitobxoni koʻnikib ulgurmagan asarlar oʻquvchilar tomonidan har xil kutib olindi.

Oddiy kitobxon saviyasiga moslashish adabiyotning taraqqiyotiga emas, tanazzulga **etaklashi** ham mumkin. Ijodkor o'zi egallab turgan cho'qqidan kitobxon tomon tushmasligi, aksincha, uning saviyasini ko'tarishga harakat qilishi lozim. Bahrom Ro'zimuhammad, Iqbol Mirzo, Zebo Mirzaeva, Rustam Musirmon, Salim Ashur, Faxriyor, G'ulom Mirzo, Abduvohid Hayit, Farida Afruz she'riyatida ayni holatni kuzatish mumkin. Bu ijodkorlar she'rlarida ijtimoiy voqelikni real tasvirlashdan ko'ra, ifodaning ta'sirchan, kutilmagan bo'lishiga ko'proq e'tibor qaratdilar [17.33].

O'zgarishga yuz tutgan 90-yillar she'riyatida o'quvchiga shoirning o'zi ham to'la tushuntirib berishi qiyin bo'lgan she'rlar dunyoga keldi. Haqiqiy iste'dod egasining she'rlaridagi kitobxonga "mantiqsizlik" bo'lib ko'ringan o'rin, aslida she'ning ichiga chuqurroq kirib borishning yo'li. Fikr yuritishdan erinmagan o'quvchi bu she'rlardagi "mantiqsizlik" dan mantiq topishi mumkin.

Magistrlik dissertatsiyasining "Istiqlol davri o'zbek she'riyatida an'ana va ijodiy yangilanish" deb nomlangan faslida istiqlolning dastlabki yillarida she'riyatdagi ijodiy ta'sir alomatlari, milliy badiiy an'analar zaminida yaratilayotgan yangi poetik izlanishlarini aniqlashga harakat qildik.

Bu davr she'riyatida shakl va mazmunda ham g'ayri an'anaviy tajribalar ko'zga tashlanadi. Masalan, G'ulom Mirzo o'z she'rlarini deyarli faqat allitratsiya va so'zlarning omonimik xususiyatlaridan foydalanish asosiga quradi. Tinish belgilariga, ularning punktatsion funksiyasidan tashqari, boshqa vazifalar ham yuklaydi. Rustam Musurmon she'riyatida esa poeziya tili oldinlari uchramaydigan sheva leksikasi va og'zaki nutq unsurlari bilan boyidi. SHoir tovushlarni orttirish, cho'zish, juftlash yoki so'zlarni bo'g'inlarga ajratib tashlash orqali she'riy ohang hosil qilishga erishadi. Faxriyor ijodida (**amfibaliyalar** - iboralarning ikki ma'noda kelishi), ruhiy kechinma tasvirini istiora, metonimiya singari she'riy san'at va ramzlarda berish, so'zlarning oxirgi bo'g'inini turlash orqali shakliy o'zgachalikka erishish, bir so'zni ikki turkumga xos qilishga urinish singari xususiyatlar kuzatiladi. SHuningdek, Faxriyor so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarning imkoniyatlaridan keng foydalanadi. SHakliy noaniqlikni ayrim turdosh otlarni

qavs ichida izohlash hamda ayrim atoqli yoki mavhum otlarga she'riy izoh yozish bilan ham hosil qilinadi. Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarida kayfiyatning shaklini chizishga bo'lgan ishtiyoq kuchlilik qilsa, Zebo Mirzaeva va A. Hayit ijodida tasavvufona kuzatishlar ustunlik qilishi seziladi. Badiiy izlanishlar, nafaqat zamonaviy she'riy shakllarda, balki mumtoz nazmning an'anaviy janrlarida ham amalga oshirildi.

Bu davr she'riyatida ramzlar tili bilan so'ylash biror so'z yoki so'z birikmasini ko'chma ma'noda qo'llash, aniq predmetga shartli belgi yuklashdan ko'ra, tagdor ramziylik imkoniyatlaridan foydalanishga ko'proq e'tibor berildi [17.38]. 90-yillardagi barcha o'zbek shoirlari olam va odam munosabatini aks ettirish ruhiyatning **obektiv** borliqqa munosabatini ifodalash, siyratdagi kechinmalarni badiiy tasvirlash jarayonida milliy badiiy an'analar imkoniyatidan keng foydalanishdi. Bu hol ichki zarurat sabab yuzaga keldi. She'r so'z, fikr va tuyg'u hosilasi sifatida o'z milliy ohangi, o'lchovi va badiiy unsurlari bilan tug'iladi. Milliy, badiiy an'analardan cheklanmay turib, shakl va ritmga erkin **yondashgan** shoirlar silsilasi paydo bo'ldi.

90-yillar she'riyatining aksariyat vakillari noan'anaviy shakllarda ijod qilgan bo'lsalar-da, ammo goh Asqad Muxtor, ba'zan Abdulla Oripov yoki SHavkat Rahmon, Usmon Azimovlarning an'anaviy badiiy kayfiyatlari ta'siridan chetga chiqqan olmagan ijod namunalari ham uchraydi.

Sarg'aygan barglarni varaqma-varaq,

Eski kitob kabi titar hazonrez.

Garchi ruhiy holat, undagi kechinma mutlaqo farq qilsada, G'ulom Mirzoning bu misralari [32.44] Asqad Muxtorning „Poeziya“ she'ridagi „yaproqni kitobday o'qiy boshladim“ satrini eslatadi. She'riyatda yangi va hech kim kutmagan tashbihlar qo'llash bilan birgalikda, ruh manzarasini musavvirona bera olish badiiy izlanish sifatida baland qadrlanadi. Sayyor tashbihlarning ko'chib yurishi zamonaviy she'riyat vakillarigina emas, mumtoz adabiyot namoyondalari ijodida ham kuzatiladi. A.Oripovning „Minoralar emas, bu-falakka qasam“ misrasi

Zebo Mirzaevaning mashhur „Tun malikasi “ she’rida „Teraklar falakka ichilgan qasam“ tarzida takrorlanadi.

Turli she’rlarda bir xil tashbeh qo’llash yoki bir-biridan mutlaqo bexabar tarzda bir xil asarlar yaratish ro’y berishi mumkin bo’lgan ijodiy hodisa. Ijodkorlardagi kayfiyat va holat yaqinligining bir-biriga o’xshash tarzda moddiylashishi ijod amaliyotida uchray turadi.

Bir vaqtlar E.Vohidov va A.Oripovlar ijodida qat’iy amal qilingan teng hijolilikka mazkur davr vakillari unchalik rioya etmaganliklari kuzatiladi. Chunki bu davrga kelib she’rning shakli bilan bog’liq izlanishlar vazn, qofiya, janrlarga murojaatdagi kabi hijolar borasida ham erkin yo’l tutishni talab etadi. Shoirning teng hijolilik saqlab qolingan she’rlari esa asosan barmoq vaznida yaratildi. 90-yillar she’riyatida janrlarga murojaat chastotasining o’zgarishi bilan teng hijolilik **shakliga** kam ehtiyoj sezildi.

90-yillar she’riyatida mumtoz nazmning chiston, ruboiy, fard va g’azal singari janrlari bilan bir qatorda, tatabbu’larda ham shoirlar o’zlariga xos asarlar yarata oldilar. Masalan, B.Ro’zimuhammad ijodida “ Qur’onga tatabbu”, „Frants Kafkaga tatabbu“ tarzida kelsa G’. Mirzoda „Mashrabona“ shaklida beriladi. Faxriyorda „Rumiyona“ deb izohlanadi.

Sharq adabiyotida mavjud bo’lgan adabiy an’analar mustaqillik davri she’riyatida ham o’ziga xos xususiyatlar bilan davom etib keldi. Buni qator ijodkorlarning ijod namunalarida kuzatishimiz mumkin.

Jumladan, Abduvali Qutbiddin ham irfoniy mavzuda talay she’r yozgan. Uning she’rlarini maxsus tayyorgarliksiz mag’izini chaqish qiyin. Buning uchun ma’lum darajada islomiy bilimga ega bo’lmog’i darkor. Masalan, Qur’onda oxirat hayoti - bu dunyo hayotidan yaxshiroq deyiladi. Lekin unga bu dunyoda yaxshi ishlar bilan tayyorgarlik ko’rmasa, **etishib** bo’lmaydi. "Bu dunyo hayotidan afzal oxirat hayoti borligiga ishonish dunyoda musibat **etgan**, azobda qolgan kishilar uchun ko’ngulni tinchlantiradi.

Shuningdek, bu e’tiqod mo’minlar hayotida noumidlik, muvaffaqiyatsizlik sodir bo’lgan damlarda ularni yangi ruhiy quvvatlantirib,

bu musibatlarga nisbatan bardoshli bo'lishga chorlaydi" [20.80].

Qur'onning "Naxl" surasining 30-oyatida esa shunday deyiladi: "Taqvodorlarga Parvardigoringiz nima tushirdi, deb aytilsa, yaxshilik tushirdi, deydilar. Bu dunyoda yaxshilik qilganlar yaxshilikka erishadilar va, albatta, oxiratda bundan ham yaxshiroq bo'ladilar, taqvodirlarning oxiratdagi joylari juda ham yaxshidir".

Abduvali Qutbiddinning "Baliqning tishi-la tilimni tildim" misrasi bilan boshlanadigan she'rining mohiyatini shu fikr tashkil qiladi:

Baliqning tishi-la tilimni tildim,
YUragimni urchuqday uch aylantirdim,
Ko'zimni qiynadim, Qiynog'im qiziq...
YAyradim [17.39].

Bu misrani o'qigan she'rxonda "Kishi qiynoqdanam yayrashi mumkinmi?" - degan fikr tug'ilishi muqarrar. Bu **erda** qiynoq jismoniy azoblanish ma'nosida emas, balki poklanish yo'lidagi ruhiy azoblanish, ruhiy qiynoqdir. Kishi ko'p gunohni tili orqali sodir qiladi. SHuning uchun baliq tishi bilan tiladi. Ma'lumki, baliq har jihatdan pok va begunoh. SHoir gunohlarga yo'l qo'ygan o'z a'zolarini jazolash orqali poklanadi, tavba qilish bilan gunohlaridan forig' bo'ladi. SHundan keyin pok bo'lgan ruhiga ergashadi. Undan keyingi ishlari ezgulikdir. Oqibatda oxirati hayotga, ya'ni jannatga (Majnuntol darchasin ochdi, kiritdi) muyassar bo'ladi. Oxirat hayotni shunday tasvirlaydi:

Majnuntol darchasin ochdi, kiritdi,
YUz bitta qizidan birni tanladim.
YAyradim.
Dunyoni tark etdim, hur safar etdim,
YOrim-la tuyg'usi bexabar etdim.
O'n besh kun to'y berdim
Dorulbaqoda."
YAyradim,
YAyradim,

YAyradim... aaaa! [17.39].

Imon - e'tiqod qilingan narsani so'zsiz ado etmoqlikdir. Insonning imoni qaydarajada ekanligi bajargan, bajarayotgan ishi bilan belgilanadi. Imoni sust kishi aytganini bajarmay, e'tiqodiga sobit turmaydi. Demak, aytgan so'ziga o'zining imoni bo'lmagan bo'ladi. Bunday odam Alloh marhamatiga noil bo'la olmaydi. Imonli odam dunyoning ikki baxtiga sazovor bo'ladi. A. Qutbiddinning "Imon" shs'rida bu falsafiy haqiqat voqealar olamida ishonarli ochib berilgan:

Tush ko'rdim, zulmat o'rmonini qahri,
Boyo'g'li qizlari terurlar chanoq.
Yo'lbarsday sochadi tegruga qahrin,
Umr manzil ko'rib bebosh, beadoq.
Tush ko'rdim, ufqning ayollari o'ynar,
SHamol siynasida entikar xayol.
YAlpiz beshiklarida tog'ni tebratar
Bo'yrada yalpizlar undirgan ayol... [17.40].

Birinchi parchada imonsizlar dunyosi, ularning qismati yoritilgan. Bu holat kechagi hayotga, ya'ni totalitar jamiyatga ham ishoradir. Haqiqatan, kechagi tuzumda imonsizlik avj olgan edi. Imonsizlik esa jazoga mustahiqdir.

Ikkinchi iqtibosda imoniylar dunyosi o'z ifodasini topgan. Ularning kelajagi, ya'ni jannat ko'katidan to'qilgan beshikda (yalpiz beshiklarida) inson, dunyo kelajagi (tongni tebratar) voyaga **etadi**, ko'kat o'smaydigan, yani yomonlik dunyosida (bo'yrada) ham ezgulik, jannatiy (yalpizlar) ko'katlarni undiradi. Demak, o'zini ikki dunyo saodatiga sazovor qilishga intiladi.

Ko'rib o'tganimizdek, Abduvali Qutbiddin o'z g'oyasini g'ayritabiiy g'aroyib manzaralar, tasvirlar zamiriga singdiradi. Sirtidan qaraganda uning tashbehlariga yuklangan fikr, tuyg'ular ko'ngil ko'zida aks etgan mutlaqo noreal, tushdagi kabi tartibsizlikday ko'rinadi. Lekin chuqurroq mushohada qilinsa, uning mohiyati anglashiladi. Chunki diniy qarash bo'yicha falsafiy **ob'ekti** real hayot emas, inson ruhiyati, ruhiy hayot, boqiy dunyodir. Zeroki shunday ekan, tasvirning g'ayritabiiy bo'lishi hayron qolarli hol emas. Negaki

gap tasvir va tashbehlarning realigida emas, uning zamirida yotgan fikr hamda uning mohiyati muhimdir.

Sirojiddin Sayyidning aksar she'riyati ham islom g'oyalari ruhida yozilgan. U "Dunyo masali" nomli she'rida shunday yozadi:

Ranju g'am azaldan barobar kelur

Alar bir-biriga birodar kelur.

Nechun sevinchlaring bir xil, ayo,

Dunyo, nechun armonlaring bunchalar rangin? **[58.67]** -degan savol qo'yar ekan, insonlarning tutgan ishidan hayron bo'ladi. YA'ni xoru zabunlikda qolgan insonlarga ko'makka o'z jinsi emas, sut emizgan jayronlar kelganidan, insonlarning badbinligidan kuyinadi. SHoir buning sababini, albatta, o'zi biladi. SHe'rxonning esa ma'lum islomiy bilimga ega bo'lmasdan anglashi dushvor.

Ma'lumki, Qur'onda bu dunyo hayoti kishilarning imtihon joyi, deb ta'riflanadi. YA'ni bu dunyo hayoti oxirat saodatiga erishish uchun vositadir. Hayotning barcha sohasi, jarayoni kishilarning imtihon joylaridir. Haqiqiy musulmon bo'lish uchun imon keltirishning o'zi kifoya emas, balki qiyinchilik paytlarida, daqiqalarida, ham islom ta'limotiga bir xil amal qilgan kishilargina haqiqiy musulmon sanaladi. Dunyodagi yaxshilik ham, yomonlik ham, aslida, imtihon uchundir. "Anbiyo" surasining 36-oyatida shunday deyiladi: "Imtihon uchun sizlarni yaxshilik va yomonlik bilan sinab ko'ramiz va oxirida hammangiz bizga qaytasiz".

Demak, ranju g'am, sevinch bir xil-u, lekin ularning sinovidan inson qanday o'tadi? SHundan ularning armonlari har xil.

Xursandchilik, dabdababozlik, hashamatchilik inson irodasini zaiflashtirib, doimiy lazzatga moyil qiladi, qiyinchilik, g'am, azob-uqubat irodani chiniqtiradi, mustahkamlaydi, SHoir she'rining so'nggi misrasi shunday:

Bir akam bor edi begonalardan,

Uni ham o'tkarding o'txonalardan,

Nechun giryonlaring kular, ay,
Dunyo, nechun ba'zi shodlar uchraydi g'amgin

[58.67].

Demak, giryon qilganlar, qalbi poklanganidan xursand, shodlar esa sinovdan o'tgan o'tmaganini o'ylab g'amgin.

Ota-onani hurmatu izzat qilish, ularning aytganini bajo keltirish, ranjitadigan ishlar qilmaslik, hech narsaga muhtoj etmaslik farzandlik burchi sanalishini uqtirish islom axloqida bor. Haqiqatan ham, nasroniy xalqlarida bunday aqida yo'q. Bu SHarq xalqining yuksak axloqidan dalolatdir. SHoirning "Hikmat" nomli she'ri zaminida shu g'oya yotadi.

SHoir hikmatni na bog'u bo'ston, na malikaning chorbog'ida, na dunyo, na chinorning yaprog'ida emas, balki:

Hikmat - bu dunyodan intizor o'tgan

Otang mozorining tuprog'idadir, -deydi. U hikmatni shunda ko'radi. Demak, ota o'limidan oldin, farzandiga ko'p ko'z tikkan. Bunga majbur qilgan farzand bugun armonda. Har o'ylaganda ko'ngli o'rtanadi. O'rtangan sari insoniylik sari qadam tashlaydi, to'g'ri yo'l sari yo'naladi. CHunki u ruhan poklanadi.

Armon chekan odam ham aqlan, ham ma'nan **etuk** shaxs hisoblanadi. Negaki o'z qilmishlarini toroziga solib, mushohada qiladigan, ba'zi ishlaridan nadomat chekadigan kishi armon chekadi, Sirojiddin Sayyidning lirik qahramoni, ya'ni "men" shunday shaxs:

YOshlik edi, bir o'zimni o'ylab yurdim,

O'z onamning sochlarini oqartirdim.

Devorlarni tirnaganda bargi xazon,

Nechun jismim zirgraydi o'sha zamon? – deydi [58.89].

"Umr asta aylanarkan aziyatga" deb boshlanadigan she'rida. O'z qilmishini o'ylashlik, o'z onasiga ozor berganidan pushaymonlik, undan ruhiy ezilishlik ham SHarq xalqlariga xosdir. CHunki bunday qilmishlar gunoh sanaladi. Bargning xazon bo'lishi umrning tugashidir. Uning uzilganda devorlarni

tirnashi shoir qalbining tiralishidi. Bu **erda** barg qismati - inson hayotiga ishora. Insonning hayotdan ketishi shoirning qalbini zirqiratadi.

Ko'ngil, ko'ngil, qay yo'llarda to'kildim men?

Seni oxir o'z molimga qul qildim men [....].

Demak, ko'ngilni havoi-nafs o'z to'riga tushirgan. Bu hol insonni tabiiy intizomdan chiqaradi, istaklar orasidagi tenglik buziladi. Havoi-nafs ustun chiqib, boshqalarni chetga suradi. Irodasi zaif, bilimi oz odam havoi-nafsga beriladi. Qur'onning "An'om" surasining 119-oyatida shunday deyiladi: "Albatga, ko'p odamlar ilmsizligi uchup havoi-nafsga berilib, yo'ldan adashadilar".

Ko'ngilni mayllarga bo'ysundirgan shoir o'zining qay ahvolga tushganini shunday yozadi:

Tutgan yanglig' xoru xasni uvollari

Joy so'raydi mendan kuzak shamollari.

Lek men o'zim qay holda va qaydadirman?

Adirlarda qolib ketgan chashmadirman [17.43].

undan tegishli xulosa chiqarish insonning ma'naviy dunyosini boyitadi, qadamini bilib bosishga undaydi. Qur'on dunyoviy bilim bilan ruhiy bilimning uyg'unligidagi ilmdir. Islom hamisha maxfiratga, yaxshilikka, yomonlikdan qaytarishga da'vat etadi. Gulchehra Nur ham shu yo'ldan boradi:

Xarid tillolarning men sof tilarman.

Haris ko'zlaringga oftob tilarman.

Meni raqibiga **qo'ygan** rafiqam,

Senga ham Ollohdan insof tilarman... [17.39].

SHayton bilan do'st tutingan odamniig qilmishi razolatdan iborat bo'ladi, yurgan yo'lida yomonlik qiladi, uni qilmaganda yomonlik sog'inadi. Albatta, bularning oxirati yo'qdir. Bundaylarning qiyofasini shoir shunday tasvirlaydi:

Yo'lda bir kimsa-yu, ming firib borar,

CHo'zilgan har shoxni sindirib borar,

Alhazar, biylatmay farishtalarni,

Elkaga shaytonni mindirib borar... [17.44].

Komillik mukammallikdir. Mukammal narsaning barchasi yolg'iz. Alloh yolg'iz, quyosh yolg'iz, oy yolg'iz. Buni Gulchehra Nur ham ta'kidlaydi:

Osmonimda moh yolg'iz,

YUragimda oh yolg'iz.

YOlg'iz bilmangiz meni,

Ko'ksimda Olloh yolg'iz ...[17.44].

Haqiqat hamisha umumlashmaga ega bo'ladi. SHundan shoironing o'kinchini faqat o'ziniki emas, umumniki deb anglamoq darkor.

Maylimiz ko'chmanchi turnadek,

Olloh, farahli bu dunyo turmadek,

Olloh. YO, Rabb, qay bandalar yo'lidan yurib,

Sening yo'llaringdan yurmadik, Olloh...[17.50].

Haqiqat va haqiqiy insoniy tuyg'u xammaga birday ta'sir qiladi. CHunki tuyg'uning millati yo'q, irqi yo'q. Barcha insonlarda birday kechadi. Adabiyotga chaqmoqday kirib kelgan Xosiyat Rustamovaning she'rlari shunday. Uning she'riyatida dunyoviylik bilan ilohiylik birlashib ketgan. SHoira she'riyati haqida qalam tebratgan tadqiqotchilar uni o'lim haqida ko'p yozadi, deb ta'kidlashadi. Sirtan qaraganda shunday. Lekin sinchiklab o'qigach, o'lim haqida emas, tiriklikka, hayotga behad muhabbat va donolik, hayotning mohiyati, insonning komilligi haqida yozadi, deyishlik to'g'ri bo'ladi, degan xulosaga kelinadi. Ma'lumki, insoniylik mohiyati hayotning ikki saodatiga erishishdir. Bunga erishish a'mollarini bajarish insoniy komillikni belgilaydi. Buni hamma ham anglab **etmaydi**. Lekin yosh bo'lsa ham, Xosiyat anglaydi va she'riyatida juda yaxshi ifodalaydi. Bu hol she'riyatdagi donolikdan dalolatdir.

Barcha narsaning asosi tiriklik va hayotdir. Insonning mavjudligi shu ikki narsaga bog'liq. SHu ikki narsani sevmalik mumkin emas. SHoira o'lim haqida so'z yuritganda tiriklikka, hayotga katta muhabbatni kuylaydi. Axir oshiqlik va mahbublik ham shu ikki narsaga bog'liq-ku! Xullas, Xosiyatning she'rlari kishida

tushkunlik kayfiyatini emas, nekbinlik tuygʻusini uygʻotadi, uni oʻqib hayotni qattiq sevib qolasiz.

SHamollar ermaklab oʻynar

Xazonni -taqdir chirttiratib otadi **erga**.

Rabbim, oʻzing bergan mana shu jonni

Oʻzingdan yashirib qoʻyay **qaerga**?! ...[17.44].

Bu misralarni oʻqib, vujudingiz zirqillab ketadi. SHoiraning hayotni, tiriklikni sevishni hech kim aytmagan holda jurʼatkorlik bilan ifodalashiga qoyil qolasiz. Uning isteʼdodiga tan berasiz.

Qancha oʻlik boʻlsa-koʻrdim, demas **er**.

Gʻamni parvosiga keltirmaydi koʻk.

Yoʻlovchi!!! Yoʻlovchi !!! Qoʻllaringdan ber –

Men seni ertaga koʻramanmi, yoʻq? ...[17.47].

Yoʻlovchi Kim? U siz bilan biz. Demak, u odamlarni ham behad sevadi, ularning **erni** gursillatib yurishini yaxshi koʻradi. CHunki hayotning tirikligi, uning tarovatligi, iliqligi ular bilan. Afsuski, ular omonat, ayniqsa, XXI asr talatoʻm, talatoʻflaridan ularni ertaga koʻrish ham dushvor.

SHoiraning sheʼrida sevgi degan soʻz ijtimoiylashadi, falsafiylashadi. Maʼlumki, insonning vujudidan tashqari hamma narsa uniki emas. Unga vafo qilmaydi. **Eru** osmon, quyoshu oy, yulduzlar, dov-daraxtlar deganday. Oʻzidan keyin ham ularni qolishidan, ularga taʼnayu malomat qiladi. Lekin darrov fikridan qaytadi. CHunki dunyo deb aytilgan narsada halovat topgan narsaning oʻzi yoʻq. U tabiatning oʻzini ham tentiratib yuboradi.

YUzinga yulduzday

Sachraganda yosh,

YAshayverasanmi

Men boʻlmasam ham,

Sening oqibating shumi,

Ey, quyosh?!...

...Bu dunyo tentirar

YOmg'irda, qorda, - deydi.

Azizim, bu ko'zlar ko'zimda qolgan

-Azizim, bu ko'zlar bilar vafoni...

Demak, insonning o'zidagi narsa unga vafo qiladi. Insonning yaxshi va yomon fazilatlari hamisha o'zi bilan birga. SHunga ko'ra mavqei va hayotdagi o'rni belgilanadi, ya'ni unga qarab ikki dunyo saodati ta'minlanadi.

BOB BO'YICHA XULOSALAR:

- Mustaqillik davri adabiyotining muhim xususiyatlaridan biri diniy-axloqiy g'oyalarni adabiy janrlarning turli shakllarida, jumladan, she'riyatda aks ettirish kuchaydi.

- Islom dinining muqaddas manbalari - Qur'on va Hadislar istiqlool davri adabiyoti uchun ham asosiy sarchashma vazifasini o'tganligi ko'zga tashlanadi.

- Istiqlool davri o'zbek she'riyatidagi yangiliklar, shakliy-mundarijaviy izlanishlar mustaqillikning qo'lga kiritilishi tufayli milliy tafakkurda paydo bo'lgan o'zgarishlar bilan bog'liq.

- Abdulla Oripov, Zebo Mirzaeva, G'ulom Mirzo, Gulchehra Nur, A. Hayit, Sirojiddin Said ijodida tasavvufona kuzatishlar ustunlik qilishi seziladi.

- An'anaviy she'riyatda teng hijolikka amal qilingan bo'lsa, bu davrga kelib she'rning shakli bilan bog'liq izlanishlar vazn, qofiya, janrlarga murojaatdagi kabi hijolar borasida ham erkin yo'l tutishni yorqin ko'rinadi.

- Istiqlool davri she'riyatida tatabbu'larning ham yorqin namunalari yaratildi. Masalan, B.Ro'zimuhammad ijodida "Qur'onga tatabbu", „Frans Kafkaga tatabbu“, tarzida kelsa G'. Mirzoda „Mashrabona“ shaklida beriladi. Faxriyorda „Rumiyona“ deb izohlanadi.

II BOB.

ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA TASAVVUFIY OHANGLARNING BADIY TALQINLARI.

II.1. Tasavvuf ta'limoti va Abdulla Oripov she'riyati.

Tasavvufning adabiyot, xususan, she'riyat bilan, she'riyatning tasavvuf bilan yaqinlashuvi tasodifiy hodisa bo'lmagan. Chunki, xuddi adabiyot singari tasavvuf ham inson axloqi, ko'ngli, ruhi va tafakkuri bilan mashg'ul bo'lishni qo'llab-quvvatlagan.

Albatta, Abdulla Oripovni mutasavvuf ijodkorlarga yaqinlashti-rishga urinish yoki uning she'riyatidan so'fiyona ma'no va tuyg'ularni axta-rish to'g'ri bo'lmaydi. Lekin uning she'riyatini tasavvufdan butunlay ajra-tib o'rganish ham mumkin emas. Zero, boshqa shoir va yozuvchilarning tajribalarini hisobga olmaganda ham Abdulla Oripovning Navoiy an'alariga chuqur bog'langanligining o'ziyiq shoir she'riyatining qaysidir bir jihatlardan tasavvufga yaqinligini yoritishga asos beradi.

Buni adabiyotshunos olim Ulug'bek Hamdam shunday ifodalaydi:

«80-yillar she'riyatida ham deyarli shu hol hukm surgan. Buning ustiga mamlakatda ro'y bergan liberal kayfiyat tufayli she'rlarda yalong'ochlik, badiiyatsiz pand-nasihat, quruq chaqiriqlar, yozg'irishlar kuchaygan. Bir so'z bilan aytganda, she'riyatni publitsistika deyarli mahv etayozgan. Ayni chog'da, ta'kidlab aytish joizki, bu o'n yillik ijtimoiy-siyosiy jihatdan turli burilishlarga—ko'tarilib turishlarga boy bo'lgandek, adabiyotda ham xilma-xil ruh-kayfiyat hukm surdi. Xususan, tasavvuf ohanglarining kirib kelishi va umuman, bir yonda otashin chaqiriqlarga to'la she'riyat, ikkinchi yonda esa dunyoning o'tkinchi hoyu havasidan go'yoki qo'lini yuvib qo'ltig'iga urgan hamda irfoniy ma'rifatga intilgan she'riyat paydo bo'ldi» [27.82].

Albatta, Navoiy, Bobur yoki Mashrabning tasavvufga qarashi bilan Abdulla Oripovning tasavvufga munosabati bir-biridan farqlanadi. SHunga qaramasdan, Abdulla Oripov ijodiyotida hayotning murakkab muammolari, xususan, inson qalbi

va ruhiy olamida pinhon yotgan ilohiy his-tuyg'ularni aks ettirishda tasavvufiy she'riyat tajribalariga tayanish mayllari ham mavjud ekanligini e'tirof qilish zarur bo'ladi. Biroq sho'ro zamonida buning tamomila teskarisi bo'lgan edi. SHuning uchun shoir keyinroq bosilgan adabiy suhbatlaridan birida, «Vaqtida meni so'fizmda ayblaganlarning o'zi bugun so'fiylik qilib yurishibdi...» [52.143], - degan edi. Holbuki, Abdulla Oripovni so'fiylikning zohiriy tomonlari qiziqitirmagan, uni asosiy mohiyat o'ziga rom etgan.

Bu narsa shoirning quyidagi fikrlaridan ham oson payqaladi: «Mashrab, Nasimiylarni «Men-xudoman» deganlari uchun osishgan, terilarini shilishgan. Ular albatta Iloh emasdilar. Xo'sh, u holda ular bu gapni nega aytdilar? Nega bu gapni aynan tushunib, sohib zabonlarni qatl qilgan-lar? Xo'sh, Mashrabning o'zi bilmasmidi o'zining Olloh emasligini? Aksincha, Mashrab: Olloh mening qalbimda, degan chuqur falsafani aytgan. Katta tasavvuf bu. Vahdat ul-vujud. Vahdat ul-vohid, degan katta dunyoqarashdan kelib chiqqan gaplar bu»[52.168].

Ana shu «katta dunyoqarashdan kelib chiqqan» «katta tasavvuf»ning ruhi va mag'zini to'g'ri anglay olganligi uchun ham Abdulla Oripov tasavvufiy adabiyotga bepisand qaramagan edi. Ammo bu xususda ham sho'ro zamonida ochiq bahs yuritib bo'lmadi, albatta. CHunki u yoki bu shoirni so'fiylik dunyosiga yaqinlashtirish uning ijodini qoralash, kamsitish, ya'ni zamona-viylik talablaridan yiroqlashtirish bilan qariyb barobar bo'lardi. Mustaqillik mafkurasi esa, har bir hodisani o'z nomi bilan aytish va talqin qilishga yo'l ochdi. SHuning uchun tasavvuf va tasavvuf adabiyoti vakillari adabiy merosi bilan Abdulla Oripov she'riyati munosabati maxsus tekshirilmagan bo'lsa-da, bu xususda ba'zi olim va ijodkorlar o'z fikr-mulohazalarini ilgari surishgan. Masalan, Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi To'lepbergen Qaipberganovning e'tirofi bo'yicha, Abdulla Oripov «o'z ijodi bilan Ahmad YAssaviy asos solgan falsafiy she'riyatimizga qayta jon ato etgandir» [42.2]. SHuningdek, uning hukmiga ko'ra «xalqona tilning shiradorligi, o'zbekona idrokning teranligi va sharqona donishmandlik bilan bir qatorda turkiy so'z ko'rkini ham ayon ko'rsatib turuvchi shoirning quyidagi to'rtligi «chuqur falsafiy - tasavvufiy mazmun - mundarijaga ega:

Bulbul o'gay erur zog'lar orasida,
YUgurik suv o'gay tog'lar orasida.
Muhabbat dardidan bemor qalblarimiz,
O'gay bo'lsak ne tong sog'lar orasida [...].

CHindan ham ushbu to'rtlikning, ayniqsa, keyingi ikki misrasida darveshlik qanoatiga yaqin bir tuyg'u aksini topgan.

SHu o'rinda bir narsani alohida qayd etish zarur deb o'ylaymiz. Pro-fessor N.Komilov yozadiki, «Alisher Navoiyning fikricha, darveshlik xis-lati bo'lmasa, iste'dod ulug' maqsadga xizmat qilolmaydi, shu uchundir balki shoirlik va darveshlik iste'dodini mujassam etgan kishidan ko'pini u «Majolis un-nafois» asarida keltirib maxsus ta'kidlab o'tgan» [18.157]. Bizningcha, Abdulla Oripovning shoirligiga dastlab ko'pchilikning hayron qolishi va she'rlarini zo'r qiziqish bilan o'qilganligining bir sababi ularda darveshona erkinlik hislarining ham mavjudligida edi. Darveshlik haqida yozgan olimlar uning hurlik, Haqni tanish, ma'rifat sohibi bo'lish, xoksorlik, xolislik kabi xususiyatlarini alohida ta'kidlashgan.

Abdulla Oripov bir necha she'rlarida aynan darveshona mayl va hissiyotlarini tasvirlab bergan. Xususan, uning

Bu gulshan vodiya men ham bir shamol,
SHamol kabi keldim, shunday keturman,

kabi misralari bunga yorqin dalildir. Umuman, shoirning oltmishinchi yillarning o'rtalari va etmishinchi yillarning boshlarida yozilgan ko'pchilik she'rlarida o'tkinchi dunyoning mayda intilish va tashvishlariga qarshi shiddatli isyon mavjudki, buni qaramlik, tobelikdan bezib, hurriyat-ga intilgan darveshvash yurak ehtirosi deyish mumkin. Abdulla Oripovning darveshlik mayllari to'g'risida tanqidchi Ibrohim G'afurov shunday deydi: «Abdulla Oripov o'sha chog'larda (oltmishinchi yillarning boshlarini nazarda tutyapman) aqlli va xayolchan edi. O'ziga sig'magan, o'zini to'la anglamagan, lekin mag'zi bilan odamlarni rom qila boshlagan aql, ne ajabki, darveshlikka undar edi. Aql bilan bog'liq dunyo doim zid. Aql qanchalik o'tkir bo'lsa, bu ziddiyatning shiddati ham shunchalik kuchli.

Bizning hisobparast dunyomiz darveshlikni yoqtirmaydi. SHoir buni tushunadi. Dunyo darveshlikka toqat qilolmasa, jilla qursa, darveshlik bilan chiqishar deydi. SHoir tabiatning darveshvasht mayllaridan mafkura qizgʻinliklari uchun voz kecholmaydi. Lekin, baʼzan zamonasozlik qilib kommunizm va uning sifat hujjatlarini ulugʻlab qoʻyadi. Lekin darveshvasht xayoldan hech qachon, hech bir sharoit, vaziyatda voz kechmaydi» [26.130]. Agar shoir oʻsha «darveshvasht xayoldan» voz kechganida uning qalbida mana bunday misralar tugʻilmasdi:

Doʻsti gʻarib,
Kel, qoʻlingni tut.
YUragingda yoqay alanga.
Kel, bir zumga dunyoni unut,
Koʻtarayin seni balandga.

Maʼlumki, darveshlikning asosiy talablaridan biri «tarki dunyo»dir. Dunyoni tark qilgan kishi koʻngilni dunyoning hamma tashvishi va gʻussalari, qiyinchiliklaridan forigʻ etadi. Tarkidunyonchilikka chorlaydigan sheʼrlar mutasavvif shoirlar ijodida tez-tez uchraydi. Abdulla Ori-povning «CHorlash» sheʼri ham mohiyat nuqtai nazaridan oʻsha sheʼrlarga yaqin, lekin, unda eski bir haqiqat yangicha tarzda ifodalangan. SHEʼrdagi «kel, bir zumga dunyoni unut» degan fikr, aslida, tarki dunyo tushunchasiga tengdir. «Doʻsti gʻarib» esa, «nafs ila dunyoga» koʻngil bermagan kishining timsoli. SHu oʻrinda «shoir nega oʻquvchini dunyodan yuz burishga chorlamoqda?» degan savol tugʻiladi. Bu savolga mana bu baytda javob bor:

Pastda qolsin nobakor xilqat,
Pastda qolsin tanbal bulutlar.

«Oʻzbek tilining izohli lugʻati»da [71.505] «nobakor» soʻzi "xulq-atvori, yurish-turishi, xatti-harakati yomon odam", «yaramas, noqobil» deb izohlangan. «Xilqat» esa vujud, borliq degani. Demak, shoir «nobakor xilqat» deganda, xulq atvori yomon, yaramas va noqobil nafsoniy dunyoni nazarda tutgan. «Tanbal bulutlar» esa ramziy mazmunga ega boʻlib, u tanbal, loqayd, yuragi otash va ziyodan yiroq kimsalarga ishorat qiladi. SHoir:

YUragingda chaqnasin faqat,
YOrug' xayol, samoviy o'tlar.

deganida ham o'sha «do'sti g'arib» qiyofasida siyrati nurli hur insonga yuzlashishni orzu qilgan. Chunki bunday kishining ko'ngli yorug' xayol, samoviy hissiyotlar xazinasidir. Navbatdagi satrlardagi mazmun esa ruhni boqiy, vujudni o'tkinchi va foniy deb bilgan darveshlarning orzusiga to'la mos va muvofiqdir:

YUksaklarda charx urib aylan,
Ruhing mangu tursin yorishib.
O'lganda ham vujuding bilan,
Ketmagaysan erga qorishib [...].

Faqir va darveshlar shon-shuhrat, mol-dunyo hirsidan yurakni poklay bilgan sabr-qanoatli va xotirjamlikni qadrllovchi zotlar bo'lganlar. Ular shu fazilatlari bilan ham boshqalardan ajralib turishgan. Bizningcha, «Noma'lum odam» she'rining qahramoni tabiatan darvesh qavmiga yaqin bir shaxs. Ushbu she'rga I.G'afurov, B.Norboev, YA.Qosimov kabi tadqiqotchilar maxsus to'xtalib o'tishgan.

Jumladan, B.Norboev uni "o'ta realistik asardir" deb baholaydi. Ammo uning asosiy xulosasi: "bizni faolikka emas, jim yashashga undaydi" [21.47] degan jummalarda ifodalangan.

Sirtidan qaralganda, bu xulosaga qo'shilish joizdek tuyuladi, chunki «Noma'lum odam» o'z fe'l-atvori, dunyo voqea-hodisalariga qarashi bilan o'zi mansub ijtimoiy muhitdagi «faol» kimsalardan butunlay farq qiladi. Biroq uning «jim yashash»i va sokinligida botiniy, ya'ni ma'naviy-ruhiy faollik bor. SHuning uchun u ayrimlar nazarida loqayd va sustkash bo'lib ko'rinadi. Holbuki, uning ko'zlarida «Yiroq yulduzlarning sirli nurlari» porlaydi. Uning ma'rifati va donoligi barcha «mayda g'alva»lar o'tkinchi, «bari nokerak» ekanligini anglay bilganligidadir. Bizning nazarimizda, munaqqid M.Qarshiboev «Noma'lum odam» she'rining asosiy g'oyasini, lirik qahramonga xos xususiyatlarni to'g'ri tushungan va izohlagan. Biz uning «she'r avjida satrlar ulug' mutasavvuflar kalomiga benihoya hamohang bo'lib ketadi» degan xulosasiga ham, «Noma'lum odam»

qismatiga sho‘ro tuzumi» ko‘rsatgan ta’sir xususidagi hukmiga ham qo‘shilamiz [23.65].

Noma’lum odam boshqalarga o‘xshab hayot kechirib, «shoshib ishga borib, sekin qaytsa ham» «ba’zida yuragi yongani bilan» bunga parvo etmagan bo‘lsa-da, mudom qanoat va hoksorlik bilan umrini o‘tkazgan, e’tiqodiga qarshi yurmagan. SHu bois «shon-shuhrat talashgan turfa xil g‘arib», «sho‘rlik kimsalar» ahvoliga kulib qaragan. SHuning uchun har joydan ilinj axtarib yurmagan. Eng muhimi, «Nasab, ikir-chikir, mol-mulk tashvishi» uni zarracha ham jonsarak etolmagan. SHu bois zamin uning buyuk qalbi oldida bamisoli bir "tariq"qa aylangan:

Tariqday zaminning ustida beun

YAshab o‘tdi shundoq buyuk bir yurak.

Olamning har turli mayda g‘alvalariga qo‘l siltab, o‘zini ko‘z-ko‘z qilmasdan xotirjam va beta’ma yashay olish darveshlikka xos xususiyat emasmi? Biroq SHO‘ro zamonlarida bunday kishilarni sustkashlikda, loqaydlikka ayblaydigan kimsalar har qadamda uchrashi mumkin edi, («Loqaydni do‘pposla desa ehtimol, unga yopishardi nokasning bari») lekin, ularni qadrlaydigan va angelaydiganlar topilishi dargumon edi:

Qaydan kelgandi u? Bilmadi kimsa,

Qabrga ham jim-jit kirib ketdi u.

Menimcha, dunyoning ustidan rosa

Miriqib qahqaha urib ketdi u [...].

SHu o‘rinda Ahmad YAssaviyning «Jondin kechgan chin oshiq», ya’ni darveshlar haqida aytilgan «Dunyo kelib jilva qilsa, boqqoni yo‘q» degan so‘zlari yodga tushadi. Abdulla Oripovning «Noma’lum odam»i dunyo makri va hiylalariga aldanmaganligi uchun ham dunyoning ustidan «miriqib qahqaha» ura olgan edi va bu «qahqaha»ning zamirida haqiqatda ham dunyoni «xo‘p teran» anglagan va undan o‘zicha baland ko‘tarilgan darveshsifat insonning ma’naviy-ruhiy kuch-quvvati mujassamlashgan.

Abdulla Oripov she’riyatida bir qancha diniy-tasavvufiy tushuncha va haqiqatlar mavjuddirki, shoir ularni ham yangicha poetik usul va obrazlar orqali

talqin qilib berishga erishgan. SHulardan biri Uzlatdir. Tasavvuf lugʻatlarida sharhlanishicha, «Uzlat - fikr odamini olomonning fikrsizlik gʻavgʻolari, jaholat va axmoqlik gʻalvalaridan muhofaza etadigan daxlsiz bir ibodatgoh»dir [70.33].

Abdulla Oripovning «Uzlat» sheʼri xuddi ana shunday ruhiy zaruriyatdan tugʻilgan. SHu bois ham sheʼr:

Menga uzlat kerakdir,
Izdihomdan toʻyganman,
Toʻda-toʻda joylarga
Endi bormay qoʻyganman.
Iztirobli turmushning
Savdosi zoʻr bagʻoyat,
Inja, nozik ruhni u

Engib oldi nihoyat [...], - degan iztirobli fikrlar bilan boshlagan. SHEʼrda «uzlat istagi» va «yolgʻizlik dardi»ning ijtimoiy, axloqiy sabablari haqqoniy koʻrsatilgan. Lirik qahramonning, «hattoki, jonzotlardan bezgan bir darveshsifat»ga qiyoslanishi ham ishonarli. Biroq, biz bunda ham uzlatning tasavvufiy mazmunidan tubdan farqlanadigan original talqiniga duch kelamiz. YAʼni shoir soʻfiylarga oʻxshab, yolgʻizlik goʻshasidan emas, balki xalq yuragidan najot va panoh izlaydi. U dunyoda «neki bor bevafo, koʻrgan-kechirganlarining barisi bebaqo» ekanligini tushungani holda, «Men uzlatni elimning yuragidan axtargum, Oʻksuklarning eng pinhon tilagidan axtargum» deydi. Bu fikr-xulosani biz uzlat haqida yozgan oʻtmishdagi hech bir shoir ijodiyotida uchratmadik. Demak, bunda tasavvufiy tushuncha shoir gʻoyaviy-estetik maqsadini ifodalash uchun bir vosita vazifasini bajargan.

Tavba kufrdan qaytish, shariat taʼqiqlagan ishlardan kechish, haqdan tashqaridagi narsalardan voz kechish bilan bir qatorda, "oʻz nuqsonlarini koʻra bilish, oʻzining ahvolini anglash, qabih ishlar, qabih feʼl va qabih fikrdan qaytish, dunyoning maʼnisizligi, arzimastligini anglab, zulmu adolatsizlikdan qaytishni ham bildiradi" [18.126]. Tavba - qilingan xato va nuqsonli ishlardan tugʻiladigan pushaymonlikdir. Afsus chekish tavbaning natijasi hisoblanadi. Abdulla

Oripovning «Yillar armoni» she'rida tavba ruhi hokim. Inson tavba eshigiga etganda u, albatta, noqislik, qusurkorlik, «Kimgadir aytilmay qolgan bir rahmat», «Kimdandir so'ralmay qolgan uzrlar»ni o'ylab o'zicha armonga beriladi.

Tasavvufda tavbaning bosqichlari uchta deb belgilangan ekan. Birinchisi «dil-dildan pushaymonlik, ikkinchisi tildagi uzr va keyingisi yomonliklardan xalos bo'lib, yomonlar va munofiqlardan aloqani uzmoq»[28.111]. Abdulla Oripov «Yillar armoni» she'rida tavbani inson yuragidagi alamlarni engillatuvchi bir ma'naviy quvvat sifatida talqin qiladi:

Insonga tobemas zamon inchunun,
Inson yuragida alamlar qat-qat.
Faqat bir taskin bor barchasi uchun,
Afsus cheka bilsak shu ham bir davlat [...].

Umuman, tasavvuf ruhi bilan yashaydigan, shu ruhdan bahramand bo'lgan boshqa shoirlarga o'xshab Abdulla Oripovda ham tavba hissiyoti kuchli. SHunga ko'ra ham uning «Malomat toshlari», «Umr qisqa edi», «Inson manzarasi», «Qo'riqxona» kabi o'nlab she'rlari tavba, istig'forga da'vat mazmunida yaratilgan. SHoir ijodida tavba masalasiga bag'ishlangan she'rning mavjudligi ham tasodifiy emas. Bu she'r quyidagi so'zlar bilan boshlanadi:

Sen gunoh qildingmi, bechora banda,
Sen shayton makriga uchdingmi nogoh.
Tinchning qolmadimi ruh ila tanda,
Endi nadomatlar bo'ldimi hamroh [..].

Tavba bir ma'noda afsus, o'kinch va nadomatlarning insonga hamroh bo'lishidir. Bunday holda inson o'zicha chora izlab, najot axtaradi. Lekin, unda ba'zan shoir ta'kidlaganidek, «Qopqalar yopilgan, ostonalar berk»ka o'xshab tuyulmog'i mumkin. Faqat haqiqiy tavbagina odamni ikkilanish va ojizliklardan xalos qila oladi. Tavba insonning tom ma'nodagi pastkashlikni, nodonlokni, jaholatni to'la anglab etishi, uning ma'naviy barkamollik sari yo'l tuta boshlaganining belsidir. U insonning ma'naviy yuksalishidagi o'ziga xos bosqichdir. SHoir shuning uchun ham o'quvchini ishonch bilan tavbaga undaydi:

Yo‘q, hali olamda mavjuddir shafqat,
Yo‘q, hali tebranur mehr beshigi.
Tavba qil, tavba qil, tavba qil faqat,
Senga ochiq faqat tavba eshigi [...].

Bizning fikrimizcha, Abdulla Oripovning dunyoqarashi va she‘riyatiga tasavvuf ko‘rsatgan ta‘sir va undan tug‘ilgan natijalar borasida fikr yuritganda ko‘proq Ruh va ruhoniyyat muammosiga alohida e‘tibor qilmoq zarurga o‘xshaydi.

SHoir ming to‘qqiz yuz etmishinchi yilda bosilgan she‘rlar to‘plamini «Ruhim» deb nomlagan edi. Unda shu nomdagi she‘r ham joy olgan. «Ruhim»-da yangi davr she‘riyatida hali aytilmagan fikr tasvirlangan, ya‘ni shoir inson ruhining asl mohiyati va sirlari to‘g‘risida yangi bir gapini she‘r-xonga etkazgan. Abdulla Oripovning ruhdan bahs yuritishi ham, bizning o‘ylashimizcha, mumtoz adabiyotimiz an‘analari va ta‘siriga ham bevosita bog‘liq. CHunki «Ruhim» she‘ri yaratilgan vaqtlarda, hatto undan ancha oldin-gi davrlarda ham, zamonaviy o‘zbek she‘riyatida ruh va ruhoniyyatga bag‘ishlab she‘r yozish ancha xatarli edi. Buning asosiy sababi esa ruhning ilohiy hodisa ekanligi va bunga diqqatni qaratish sho‘ro mafkurasi andozalariga to‘g‘ri kelavermasligi edi. SHunday sharoitda ham Abdulla Oripov chin she‘riyat talablariga sodiq bo‘lgani va mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy asarlarini chuqur o‘rgangani bois «Avlodlarga maktub» she‘rida:

Bir kun aytibdurki Navoiy bobo:

«Doim o‘zga bo‘lur suvrat ila ruh», - deb yozgan edi.

«Avlodlarga maktub» 1966 yilda yaratilgan. Oradan qariyb to‘rt yil o‘tgach, «Ruhim» she‘ri dunyoga kelgan. Gap shundaki, Navoiy ta‘kidlagan suvrat ila ruhning farqi to‘g‘risidagi tushuncha «Ruhim» she‘rining g‘oyaviy asosini tashkil etadi. SHE‘rda suvrat va ruh munosabati vujud va ruh shaklida talqin qilinganki, bunda ham Navoiy fikriga zarracha bo‘lsin qarama-qarshilik yo‘q.

Xo‘sh, ruhning o‘zi nima? Ruhning talabi va kamoli nimalardan iborat?

Adabiyotshunos I.Haqqul Sulaymon Boqirg‘oniy she‘riyatiga bag‘ishlangan bir maqolasida ruh to‘g‘risida atroflicha mulohaza yuritib, jumladan, bunday deydi: «Ayrim islom olimlari ruhning latif va otashli jismga o‘xshashligini

isbotlashga uringanlar. Qur'oni Karimning yigirmadan ortiq oyatida ruh so'zi mavjud: «Eslang. Parvardigoringiz farishtalarga degan edi: «Albatta, men loydan bir odam yaratguvchidirman. Bas, qachon uni rostlab, unga o'z ruhimdan puflab kirgizganimdan so'ng, unga sajda qilgan holda yiqildinglar. (Sod surasi: 71-72). Demak, insondagi ruh-ilohiy ruh. SHunga ko'ra u Ruhga bo'ysunishi, ruhoniyl ehtiyoj va huzur ichida yashamog'i shart, chunki, Ruh insonni faqat ezgulik, go'zallik va ma'ri-fatga chorlaydigan haq hadyasidir»[28.42]. Eng muhimi esa, SHayx Aziziddin Nasafiy ta'kidlaganidek, «ruh takomillashtiruvchi sof bir qudratdir. U parchalanmaydi, a'zolarga bo'laklanmaydi, uni qism-qism qilib ajratish mumkin emas»[67.21]. Abdulla Oripov ruhga haqida:

Senga na bo'ronlar kor qila olur,
Seni na yo'qotib, bor qila olur.
Sen misli kamalak-yuksak va so'lmas,
Kamalakni esa parchalab bo'lmas.

deganida aynan yuqorida izohlangan mohiyatga tayangan. CHunonchi, Nasafiyning «Ruh parchalanmaydi, a'zolarga bo'linmaydi», degan fikri hamda Abdulla Oripovni kamalak tashbihi bilan ifodalangan obrazli xulosasi deyarli bir xil. Gap bunda fikrning o'xshashligida emas, albatta. Balki ruhning ilohiyligiga oid qarashlardan uzoqlashilmaganida. Endi ruh va vujud munosabati masalasiga qaytsak. Nafs vujudning asosiy xususiyatlari va ehtiyojlarini ifodalaganligi uchun ushbu muammo nafs va ruh yoki ruh va nafs tarzida ham yoritilgan. Buning bir misoli Sulaymon Boqirg'oniyni nafs va ruh munozarasiga bag'ishlangan hikmatidir[28.41]. Ruh olami - ishq, go'zallik, nafosat, diyonat, imon va e'tiqod olami. A.Abduqodirovning qayd etishicha, «Ruh tasavvufda ishq hamdir»[65.33]. Vujud olami - moddiy ehtiyojlardan yuzaga keladigan o'tkinchi talab va xususiyatlar olami. SHuning uchun Zahiriddin Muhammad Bobur bir ruboiysida:

Ruhim yaratib eding latofat birla,
Qilding anga tanni hamroh ofat birla.
Ruhimni chu tan eviga keltirding pok,
Mundin bori elitma kasofat birla [...].

deb yozgan edi. Lekin «tan eviga» pok kiritilgan ruh qusur va kasofatlardan xoli, vujud zulmlaridan ozod holda yashashi juda qiyin. Vujud va ruh orasidagi ixtilof va ziddiyatlarning zamini ham ana shunda. Umuman olganda, Abdulla Oripovning «Ruhim» sheʼri Navoiyning «Doimo oʻzga boʻlur suvrat ila ruh», degan fikrining oʻziga xos sheʼriy isbotiga oʻxshaydi. Abdulla Oripov bu oʻzgalikning sabablarini ochishda ruhni maqtash va vujudni qoralash yoʻlidan bormaydi. Balki, fano va baqo tushunchasiga tayanadi. SHoir dastlab, «Vujud deganlari asli nimadir?» degan savolni oʻrtaga tashlaydi va savolga javob qaytarib: «Dayr dengizida yurgan kemadir», deydi. Lekin bu «kema»ning umri muvaqqat. CHunki:

Bir kun bir qoyaga urilgay kema...

Bas shunday ekan, inson foniylilikni boqiylikdan ustun koʻrmasligi kerak. YAʼni ruh «vujudning gʻamini» emasligi lozim. Zero, ruhda «na ohang» va "na ovoz" boʻlmagani bilan, u «yuksak fazolar»ga parvoz aylashga qodir. Bu parvozlar esa insonni haq va haqiqatga yaqinlashtirib, samoviy hislar ogʻushida yashashga yoʻl ochadi.

Maʼlumki, mustaqillikdan keyin tasavvuf va tasavvuf adabiyoti masalalari ancha keng va erkin oʻrganila boshlandi. Bu haqda bir necha kitob va risolalar, koʻplab maqolalar eʼlon qilindi. Mazkur mavzularda qalam tebratgan olimlarning koʻpi bir masala ustida alohida toʻxtalib, baʼzan bir-birini takrorlovchi, baʼzida bir-birini boyituvchi mulohazalarni ilgari surishgan. Biz eʼtiborni jalb qilayotganimiz bu masala - Nafs masalasidir. «Nafs jismoniy borliq ichida, yaʼni vujudda mavjud boʻlgan va faoliyat koʻrsatuvchi bir quvvatdurki, u barcha yomon xulqlar va chirkin harakatlarning manbaidir. Bunga muqobil Ruh qalbning taʼsiri ostida Allohga etishadigan maʼnaviy bir kuch hisoblanadi»[28.106].

Ana shuning uchun mumtoz adabiyotimizda, ayniqsa, uning Ahmad YAssaviy, Sulaymon Boqirgʻoniy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab, Soʻfi Olloyor singari buyuk vakillari Ruhni ulugʻlab, Nafs bandasiga aylanish yomonlik va tubanlik timsoli sifatida har tomonlama keng talqin qilganlar. Abdulla Oripov bu shoirlarning ijodlaridan xa-bardor boʻlgan. Lekin u faqat xabardorlik bilan ham cheklanmagan. Bu daʼvo-ga misol boʻladigan bir dalil

Abdulla Oripovning «Bul ajab xor kimsadin imdod so‘raydi xorlar» satri bilan boshlanadigan she‘ridir. Bu she‘r bir necha jihatdan diqqatga loyiq. Unda shunday so‘zlar bor:

Nafs ila dunyoga dil bergan fosiqlar siz bu kun,
YAssaviy xok poyidan aylab soling tummorlar.

Bu fikrlar yozilgan oltmishinchi yillarning o‘rtalarida Ahmad YAssaviy shaxsi, tariqati to‘g‘risida ijobiy gap aytish mumkin bo‘lmaganidek, uning «Devoni Hikmat»ini o‘qishga ham imkoniyat yo‘q edi. Demak, YAssaviy va uning ijodi qoralanib turgan bir paytda bu ulug‘ zotni sharaflab, nafsga tobe bo‘lish va dunyoparastlikka qarshi turishni ibrat qilib ko‘rsatish al-batta, Abdulla Oripovning YAssaviy dunyoqarashi va ijodiyotining mohiya-tini bilishidagina emas, shuningdek, shijoatidan ham dalolat edi.

Ikkinchidan, shoir «Nafs ila» «dunyoga dil» berishni fosiqlik deb baholar ekan, bunda nafs, ayniqsa, nafi ammora haqida to‘liq tushunchaga egaligini ko‘rsatgan.

Uchinchidan, mazkur bayt orqali shoir nafs va nafsoniy hayotga nisbatan munosabatini aniq aks ettirgan. SHuning uchun bunday misollar Abdulla Oripovning mumtoz she‘riyatimiz g‘oyaviy an‘analaridan chuqur ilhomlanganligini asoslashga xizmat qiladi.

U «Vijdon» deb atalgan she‘rida «Magar ketar bo‘lsa vijdon bosh olib, Imon ham u bilan birga» ko‘chishini ta’kidlab, shunday deydi:

Devlar qutulgandek Sulaymon o‘lib,
Betizgin tuyg‘ular har yon yugurgay.
Qalb degan istehkom posbonsiz bo‘lib,
Eng avval nafs unga o‘zini urgay [...].

Haqiqatda ham qalb, imon, e‘tiqod, diyonat, xususan, Vijdon atalmish posbonlaridan ajralsa, Nafs qalb hokimiga aylanadi. Nafs hukmronlik qilgan qalbning holati va fojealari klassik shoirlar tomonidan juda keng tarzda tasvirlangan.

Ahmad YAssaviy:

Nafs yo‘lig‘a kirgan kishi rasvo bo‘lur,
Yo‘ldan ozib, toyib, to‘zib gumroh bo‘lur.
YOtsa-tursa shayton bila hamroh bo‘lur,
Nafsni tebgil, nafsni tebgil, ey badkirdikor,

- deydi va bir qancha hikmatlarida nafsga taslim bo‘lgan kishining xor-zorliklari, gumrohlik va «shayton bila hamroh»likdagi qilmishlarini ko‘rsatib beradi. Bunda, albatta, Ahmad YAssaviy o‘z davri va zamoni fikriy talablari, odamlarning holatiga binoan qalam tebratgan.

Abdulla Oripovning «Vijdon» she‘rida o‘z oldiga qo‘ygan g‘oyaviy niyat ham, taxminan Ahmad YAssaviy ko‘zlagan maqsadga yaqin. SHunga qaramay, Abdulla Oripov she‘rida ko‘rsatilgan nafsiga taslim kimsalarning qiyofa-si ham, qilmishlari ham mutlaqo boshqacha. Bular «Kuppa-kunduz kuni kiprik qoqmasdan» yolg‘on so‘zlaydigan «daho»lar, «Umrda bir sham yoqmasdan» «mash‘al bo‘lmoqlikni» da‘vo qiluvchilardir. Nafs Qalb ustidan hukmronlik etar ekan, albatta, dunyoparastlik hirsini tug‘yon qiladi. Ahmad YAssaviy bu masalada ham bir hikmatida:

Dunyoparast nojinslardan bo‘yin tovla,
Bo‘yin tovlab daryo bo‘lib toshtim mano.

- deydi. Abdulla Oripovning «Dunyo» deb nomlangan she‘rida Ahmad YAssaviyning dunyoparastlik kulfatlari to‘g‘risidagi tushunchalari o‘ziga xos tarzida mantiqiy davomini topgan desak xato bo‘lmaydi. CHunki, bu she‘rda, aynan, dunyoparast kishining obrazi yaratilgan. SHE‘rda aytilishicha, «Bir kimsa umrining so‘nggiga qadar» molu dunyo va siymu zar yiqqan. Uni «Na do‘sting holi» va «na qo‘shnisining o‘ksik ahvoli» aslo qiziqtirmagan.

Nega shunday bo‘lgan? CHunki, bu kimsa «Faqat nafs ortidan ot» surgan. Lekin, bir kun u ajal bilan yuzma-yuz bo‘lgach, uni endi «na siymu zar», «na billur, na gavhar» qutqara olmasligini tushungan. Bu kimsa Ahmad YAssaviy-ning «Dunyo uchun g‘am ema, Haqdin o‘zgani dema» degan o‘gitlariga amal qi-lishni biror marta xayolga ham keltirmagan. Ehtimol uning fojeasiga bosh sabab ham ana shudir. U beshafqat ajalga tan berar ekan, azaliy haqiqat - umrning elday kechishi

va bu foniy dunyo boyliklarining barchasi o'tkinchi-ligini tushunadi. Ammo, bu juda kech edi. Marhumni dafn etishgach, uning "quvonchi - g'ami uyum tuproqqa" aylanadi. Bizning nazarimizda, Abdulla Oripov she'r xotimasida Ahmad YAssaviyning «asling bilsang obi gil, bir kun gilga ketaro», - degan fikrlaridan ta'sirlangan, o'z qalbida ruhida unga hamohanglik tuygan va shunga uyg'un tarzda:

Uyum tuproq bo'ldi quvonchi - g'ami,

Kimdir boqib dedi: «SHunga shunchami...» ,-deb yozgan.

Xullas, mumtoz adabiyotimizda doimiy ravishda badiiy talqin qilib kelingan Ruh va Nafs muammosi Abdulla Oripov she'riyatidan ham alohida bir o'rin egallagan. Nafsni taslim qilish, ta'ma, kibr, adovat, hasad singa-ri yomon illatlardan poklanish demak. Abdulla Oripov to'rtliklaridan birida shunday deydi:

Koinot gultoji insondir azal,

Undadir eng oliy tafakkur amal,

Hatto u tubanlik ichra ham tanho,

YO falak, ijoding muncha mukammal [...].

Insonning «tubanlik ichra ham tanho»ligini ko'rsatidigan illat va chirkinliklardan biri Hasaddir.

SHayton vasvasasiga uchib, inson qalbini nafs o'z botqog'iga tortsa, eng tuban illatlar uning hamrohiga aylanadi. Hasad barcha yomonliklarining eshigidir. Payg'ambarimiz s.a.v.ning kuyovlari Hazrati Ali: «Hasad hosid-ning adovatidan, kibr va shaqovatidan paydo bo'ladurg'on ahloqiy zamima-dur. SHuning uchun hosid doimo azobi ruhoniy ichinda yashar. Bir kishining saodatini ko'rgan zamon hasad otashiga yonar, Hosidga mundin ortiq jazo bo'lurmi?» deya hasadgo'y ahvolini ta'rif etganlar.

Hasad shunday qora va chirkin illatki, g'iybat, bo'hton, tuhmat, ta'ma kabi yomonliklariing kelib chiqishi ham hasaddandir. SHu uchun o'tmishda yashab ijod etgan shoir va olimlarimizning ko'pchiligi hasad va hasadgo'y-likni qoralab, bu masalada juda ko'p ibratli fikrlarni olg'a surganlar. Alisher Navoiyning ushbu mavzudagi she'rlari navoiyshunos I.Haqqul tomonidan ancha keng tahlil va talqin

etilgan [28;29;30]. Navoiydan keyingi asrlarda ijod qilgan mumtoz adabiyotimiz vakillari ham hasad xususida o'z so'zlarini aytishgan.

Abdulla Oripovning hasadga bag'ishlangan she'rlari o'zining ma'no chuqurligi va obrazli ifodasi bilan Navoiy, Bobur va Ogahiy kabi mumtoz she'riyatimizning atoqli namoyandalari tajribalariga bevosita bog'lanadi, deyish mumkin.

Abdulla Oripov hasad ofatlari haqida ko'p mushohada qilgan va ko'p yozgan shoirlardan biri. Bu xususda undan so'ralganda shunday fikrlarni bayon etgan: "Hasad - umuminsoniy illat, uning millati, dini, mamalakati bo'lmaydi. Bu illat insonga shaytoni la'in tomonidan yuqtirilgan. Faqat ma'naviyati yuksak odamgina bu qora illatni engib o'ta oladi... CHindan ham, bu mavzuda menday ko'p yozgan shoir kam bo'lsa kerak".

Abdulla Oripov hasadning zararlari va odamlar boshiga yog'diradigan ofatlarini chuqur bilganligi uchunmi u hasad va hasadgo'ylikni qoralab ancha satrlar bitgan. SHoir «Hasadgo'y haqida» degan to'rtligida yozadi:

O'zi oddiygina,
Kam yo'q ishida.
Tonnalab ko'mir bor
Lekin ichida [...].

Hasadgo'ylik bilan ichiqoralik, bir-biriga yaqin. Biroq, shoir bu to'rtlikda hasadgo'ylikning asosi ichiqoralik ekanligini «tonnalab ko'mir» ifodasi orqali yoritib bergan. Umuman, hasad nima o'zi? Uning paydo bo'lishiga sabab nima? Bunga o'tmishda yashab ijod qilgan shoir va yozuvchilarning ko'pchiligi javob izlashgan hamda o'rni-o'rni bilan o'zlarining fikr-mulohazalarini yozib ham qoldirishgan. Hasad haqida gapirib, uni tanqid qilib ildizini quritib bo'lmaydi. Odam farzandi bor ekan - hasad bor. Nafsdan xalos bo'lish qanchalik qiyin bo'lsa, hasaddan qutilish undan ham qiyin. Hasad yashar ekan, dushmanlik va yomonlik ham yashaydi. SHuning uchun hasad to'g'risida mulohaza yuritmaslikning ham imkoni yo'q. Abdulla Oripov esa bunday mulohazalarning bir yakuni sifatida "Momo oftob" she'rida yozadi:

Idrokim boricha yashadim faqat,
Fahm ettim dunyoni baimkon, qat-qat.
YOlg'iz bir jumboqqa aqlim etmadi:
Qaydan tug'iladi bilmadim hasad [...]

SHoir hasadni «qora bir balo» deb ataydi. Bu «qora balo» birinchi navbatda insondagi «eng oliy hislar»ni emiradi, butun kuchini yomonlik, dushmanlik kabi razil mayllarning taraqqiysiga safarbar etadi. SHu bois bo'lsa kerakki, haqiqiy iste'dodlar ko'pincha ig'vo, hasad, adovat kabi illatlarning qurshovida, ular bilan kurashlarda toblanib, ijod cho'qqisi tomon olg'a intilishgan. Abdulla Oripovning «SHoir va ilhom» she'rida «ilohiy ilhomning tongda ko'z ochishi», "ajib shu'lalarga burkanib" erga - shoiri tomon kelayotgan paytida ig'vogar va hasadgo'yga uchrab ne ahvolga tushgani ramziy ifodalar orqali tasvirlangan:

Ilhom paydo bo'ldi tanish ko'chada,
O'shandoq bezangan - qanotlari zar.
Ammo bu gal uni xilvat go'shada
Kutib turar edi osiy Ig'vogar [...].

«Ilhom ko'zini zarra ochirmasdan» ig'vogar ilhomga tashlanadi, «shoir sendan yuzini o'tirgan» deb «uning boshiga qiyomat» soladi. Ilhom ma'yus, boshi xam bo'lib «ming shubhada» shoir darvozasiga yaqinlashadi. Ammo, darvoza oldida uni hasadgo'y kutib oladi:

CHO'ltoq hassasini o'qtalib Hasad
Ilhomning boshiga tushirdi chunon,
- Kim qo'yibdi senga parvozni, nomard,
Bizlar er yuzida yursak sargardon.
SHundoq deb ilhomning nozik va mayin
Qanotlarin hasad yulib tashladi.
Bu ham etmagandek, shafqat bilmayin,
Ilhomning yuziga loylar chapladi [...].

Darvoqe, hasadgo'yning asl maqsadi birovning «yuziga loylar chaplash», uning iste'dod qanotlarini» «yulib tashlash». U haqiqatdan ham shafqat bilmaydi.

SHoirning qat'iy xulosasiga ko'ra «hasadning ijobiy ma'nosi yo'q. U doimo qora rangda yozilgan»[46.118].

Abdulla Oripov hasad bilan yonma-yon yuradigan nafsning boshqa «farzand»lari bo'lmish adovat, kin, g'iybat, xiyonat, ta'ma singari axloqiy illatlarni ham mazmun-mohiyatiga mos keladigan «qora rang»da tasvirlab bergan. SHoir bir to'rtligida:

Hasad va yovuzlik to'la dunyoni

Vo ajab erinmay qirq yil kuylabman.

- deydi. Haqiqatda ham Abdulla Oripov bu ko'hna dunyoning faqat yaxshilik, va go'zalliklarini emas, yomonlik va illatlarini ham barcha qirralari bilan ko'rsatib berishga intilgan. Uning yozishicha:

Vijdon ketgan joyda albatta, bir kun

Ilondek qo'zg'olur bo'htonu tuhmat.

Bu yorug' olamda odamzod uchun

Bormikin ulardan ortiqroq kulfat... [...]

Kulfat, «g'iybatu kin, g'araz bijg'ib» ketishiga sabab bo'lib qolmasdan, odamlarning odamday yashashi, mehr va shafqat bilan o'zaro munosabat qilishlariga qarshilik ko'rsatadi. Hamma zamonning ham o'z ig'vogarlar, ta'magir, riyokor va tovlamachilari bo'lgan. Mumtoz she'riyatimizning vakillari ular haqida ko'p yozishgan. Bizning zamondosh adiblarimiz, jumladan, Abdulla Oripov ham bu mavzuning yangi qirralarini topib, kitobxon e'tiboriga havola etadi. YOmon illatlardan bo'lgan ta'ma insonlar boshiga tushadigan falokatu-azob sababchilaridandir. Ta'ma mavzusi ham klassik adabiyotimizda keng ifodasini topgan. Jumladan, YUsof Xos Hojib shunday yozadi:

Kishi umduchi bo'lsa bo'lun,

Suyurqa ani sen, e ko'rki to'lun.

Necha-ma bedusa ko'ngul umduchi

Kishida ili umduchi ul tuchi[...].

(Kishi ta'magir bo'lsa narsaga qul bo'ladi. Sen unga ehson qil, ey chiroyi oy. Agarchi ta'magir bek bo'lsa ham quldir. Kishilar orasida tubani doim

ta'magirdir).

Boylikga o'chlik, ko'proq narsalarga ega bo'lish hirsini ta'maga, olg'irlik va xushomadgo'ylikka undaydi. Mehnat qilgan va undan haqiqiy ma'noda rohatlangan insondan ta'ma hirsini chekinadi. SHuning uchun inson faqat odatiy turmush tashvishlari-yu, mayda-chuyda hayot ehtiyojlari girdobiga botib qolmasligi va katta maqsadlar sari qalbni poklab intilmog'i lozim.

Abdulla Oripov mumtoz adabiyotning barcha ilg'or vakillari qarashlarini qo'llab, qanoatni ta'maga qarshi qo'yadi. Uningcha, «inson har qancha sargardon bo'lsa» ham qanoatni boshiga toj aylashi kerak. CHunki, bobolardan bizga meros qolgan bu dunyo, aslida «bobolar beta'ma qurgan dunyodir». SHuning uchun «kimdir ta'ma bilan dunyo» kezarkan u, albatta, «dunyo loyiga» (Mashrab) botishi aniq.

Mamlakatimiz o'z Mustaqilligiga erishgach, o'zbek xalqi hayotida tom ma'nosi bilan o'zgarish va yangilanish boshlandi. Ana shu davrdan e'tiboran, xalqimiz o'zining o'tmish tarixi, milliy qadriyatlari, ma'naviyat ildizlari, tili va dini to'g'risida chuqur va har tomonlama keng fikrlashga kirishdi. Bu esa uning SHo'ro tuzumi davrida ko'p muqaddas narsa va tushunchalardan yi-roqlashganligi, diniy va axloqiy hayotida ko'p narsalar boy berilganligini ro'y-rost namoyon etdi.

Mustaqillik in'om etgan erkin fikrlash imkoniyati hamma narsani o'z nomi bilan atashga da'vat etadi. Bu da'vat va talabni anglashda, albatta, millatimizning ziyoli qismi peshqadamlik qilishdi. Natijada, adabiyotda ham sifat o'sishi va o'zgarishlarga keng yo'l ochildi. O'zining sarchashmalaridan bir qadar ajratilgan o'zbek adabiyotida ham g'oyaviy-badiiy an'analar qayta jonlanib, qadim yo'nalishlarini davom ettirishga kirishdi. Mumtoz adabiyotimiz tajribalaridan juda yaxshi ma'lumki, SHarqdagi boshqa adabiyotlar singari o'zbek adabiyotining taraqqiyot asoslaridan birini Islom dini tashkil etgan. O'tmishda yashab ijod etgan bizning hech qaysi yozuvchi, shoir yoki olimimiz Qur'oni Karim oyatu kalimalaridan ilhomlanmasdan, payg'ambar hadislarini o'qib o'rganmasdan, shariat qonun-qoidalariga hurmat bilan qaramasdan ijod qilmagan. Filologiya fanlari doktori Hamidulla Karomatovning ta'kidlashicha «Hozircha bizga ma'lum turkiyazon xalqlarning eng ko'hna asari - YUSuf Xos Hojibning XI asrda

yaratilgan «Qutadgʻu bilig» («Saodatga yoʻllovchi bilim) asari boʻlib, unda biz Islom mavzulari va Qurʻoniy iboralarining matnda koʻp va xoʻp qoʻllanilganligidan voqif boʻlamiz... Turkiy xalqlarning ilk adabiy asari matnidagi Qurʻoniy mavzular esa oʻsha davr turkiy xalqlari uchun islom ruknlari va Qurʻoni Karim taʼsirining zohirligidan dalolat beradi» [14.67].

SHunday fikrni Ahmad YUgnakiyning «Hibat ul-haqoyiq», Rabgʻuziy-ning «Qissasi Rabgʻuziy» asarlari toʻgʻrisida ham aytish mumkin. Ahmad YAssaviy esa, ochiq-oydin qilib:

Meni Hikmatlarim koni Hadisdir,
Kishi boʻy eltmasa bilgil habisdir...
Meni Hikmatlarim farmoni Subhon,
Oʻqib bilsang hamma maʼnoyi Qurʻon, - deydi.

Qurʻon va Hadis oʻqib, ulardagi maʼno va haqiqatlardan ilhomlanib ijod qilish albatta, soʻzning xolisligi, ilohiyligi, hayotiyligi va hikmat-ga boyligini taʼminlaydi.

Maʼlumki, dunyodagi deyarli hamma dinlarda ham axloq tarbiyasi va axloqiy etuklikka alohida eʼtibor berilgan. Lekin, Islom dinida goʻzal axloq tushunchasi yanada yuqori darajalarga koʻtarilgan. SHuning uchun SHarq shoirlari axloq va odob masalalarini yoritish yoki hal qilishda Qurʻoni Ka-rim oyatlari va Hadislardagi koʻrsatmalarga asoslanganlar. Umuman, Qurʻon inson qalbi va axloqidagi har qanday xastaliklarning shifosi deb qaralgan.

SHoʻro tuzumi **tazyiqi** bilan xalqimiz Islom va tasavvuf olamidan garchi asta-sekin uzoqlashtirilgan boʻlsa-da, ammo, uni diniy va tasavvufiy adabiyotdan butunlay yiroklashtirishga erisha olinmagan edi. Bu esa chegaralangan tarzda boʻlsa hamki, isteʼdodli va dunyoqarashi keng ayrim yozuvchi va shoirlarning ijodida diniy tushunchalar, tasavvufiy his-tuygʻularning davom topishi uchun imkon bergan edi. Abdulla Oripov «Qoʻriqxon» sheʼrida:

Imonni asrangiz, u doim tanho
Undadir mujassam inson matlabi.

deb chorlaganida, albatta, imonni Islomdan ajratmagan. Zero, imonga sodiq kishi

Islomga ham sodikdirki, imonni Islom ziyosi va ma'rifatidan yirokda tasavvur qilish mumkin emas.

SHuni ta'kidlash lozimki, dinga qarshi kurash, ateistik targ'ibot ishlari avj oldirilgan zamonlarda ham Abdulla Oripov she'rlarida ruhoniylar kayfiyat, diniy mohiyat va xulosalarning o'rin olganligi alohida e'tiborga molikdir. Bunda shoirning «Bul ajab har kimsadin imdod so'raydir xorlar», «Pahlavon Mahmud maqbarasi qoshida», «Ruhim», «Bahor» kabi she'rlarini eslatib o'tish maqsadga muvofiq.

Qayd qilish kerakki, Abdulla Oripov dahriylikdan birdaniga Ollohiparastlik va Ilohiyotchilikka o'tgan shoir emas. Ijodkor sifatida shakllanish bosqichlaridayoq uning ko'ngli va idroki Islom nuri va ziyosi bilan munavvar bo'lgan. «Haj daftari» turkumidagi she'rlarida erishilgan muvaffaqiyatning sir va asoslaridan biri ham ana shunda edi.

II.2. "Haj daftari" va "Hikmat sadolari" to'plamlarining ilohiy-irfoniy manbalari.

«Haj daftari» - shoirning muqaddas Haj safari taassurotlaridan tug'ilgan, diniy, axloqiy, ma'rifiy va didaktik mohiyatdagi turkum hisoblanadi. Bu turkumning yuzaga kelishi to'g'risida shoir shunday deydi: «Makkai mukarramaga borganimning dastlabki kunida Ka'batullohda - Olloh uyi yonida tunni bedor o'tkazib, tilovat bilan bir qatorda baytlar yoza boshladim. Men bu holatga avvaldan bir muncha tayyor bo'lganim sabab-limi satrlarim o'z-o'zidan quyilib kelaverdilar». Haqiqatda ham shoir fikran va ruhan «avvaldan bir muncha tayyor» bo'lmaganida turkumdagi she'rlar o'z-o'zidan quyulib kelavermasligi aniq edi. Chunki, u Haj ziyorati-gacha ham «ma'naviyatimiz quyoshlaridan biri dini Islom» ekanligini chuqur idrok etgan, Qur'oni Karim - ayniqsa, «Hadisi sharif», «She'riyatlar she'riyati» ekanligini to'liq anglab etgan edi.

SHarq she'riyatida yaratilgan "Arbain"larda avval hadisning arabcha, forsha yoxud turkcha tarjimasi keltiriladi-da, keyip (nasriy) sharh beriladi. Abdulla Oripovda esa hadisning asl shakli keltirilmay, o'zi berilaveradi. Lekin

shunga qaramay, shoir maqsadga erishgan. CHupki gap shaklda emas, mazmun va mohiyatidir. Lekin bugungi she'riyatga Abdulla Oripov "Haj daftari" va "Hikmat sadolari" turkumi bilan hozirgi o'zbek she'riyatiga diniy-ma'rifiy g'oyalarni birinchi bo'lib olib kirdi.

“Haj daftari”dagi she’rlar she’riy hadislar deb atalgan va ularning barchasi u yoki bu tarzda hazrati payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning «suxanlari bilan» bevosita bog‘liqdir. Xo‘sh, mazkur she’rlar nega she’riy hadis deyilgan? CHunki ular, birinchidan, diniy mohiyat va payg‘ambar kalomlari ta’sirida tug‘ilib, pand va ibrat mazmuniga ega. Ikkinchidan, ushbu she’rlarda Abdulla Oripov «Qirq hadis», «Arba’in» deb atalgan va hadislarini she’riy talqinlarini yaratish an’anasini davom ettirgan. Lekin, Abdulla Oripovning «Hadis»lari klassik an’analarning butunlay yangi bir davr sharoitida, ayniqsa, o‘rtadagi juda katta Vaqt, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, axloqiy-ma’naviy, adabiy-estetik o‘zgarish-lar, evrilish va yangilanishlar «jarligi»dan so‘ng davom ettirilishi natijasida butunlay yangicha mazmun va qiyofa kasb etdi.

Bu yangilik va o‘ziga xoslik, eng avvalo, ulardagi mazmunning keng qamrovliligi, davr va zamon ehtiyoji bilan bog‘liq ijtimoiy, siyosiy-falsafiy qarashlarni ham o‘zida mujassamlashtirganligi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, ushbu turkum yaratilishidan to‘rt-besh yillar burun yozilgan "Uzlat", "Savob" nomli she’rlari uning ruhoniy-psixologik omillaridan bizni voqif etadi. SHoirning "...bu holatga avvaldan bir muncha tayyor bo‘lgani sabablari" – ma’naviy asoslarini anglashimizda bir ochqich vazifasini o‘taydi. YA’ni, "Uzlat", "Savob" singari she’rlar "Haj daftari"ning ma’lum darajada ildizlaridir.

Uzlat izlab bormagan

Joyim balki qolmadi,

Hech bir go‘sha kelgin deb

Og‘ushiga olmadi,

Uzlat qayda men uchun,

Balki yiroq ellarda,

Qadam etmas tog‘larda,

It yashomas choʻllarda.
U yoqlarga yoʻlimni
Bura olmay hayronman,
Nechuk oʻksik bandaman,
Nechuk baxtsiz insonman.
Doʻstu yordan yuragim
Ayrilar nari-nari,
Uzlatning sogʻinchi bu,
YOlgʻzlik dardi bari...
YUz oʻgirma, bu yoʻlchi
Na quvonch, na kulfatdir,
Uning yolgʻiz ilinji
Uzlat erur, uzlatdir... [....]

Uzlat - bu huvillagan yolgʻiz uyga biqinish yoki qorongʻi ertoʻlaga tushib, boshini koʻrpaga burkab yotish emas. Uzlat - bu odamlardan qochib, yolgʻiz oʻzi bilan oʻzi holi qolish, tanho dardlashish degani ham emas. Uzlatni yolgʻizliqdan panoh topish, taskin olish, yurak dardlariga malham izlash, deb ham tushunmaslik lozim. Uzlatga chekinish - bu koʻngilga safar qilish. Koʻngil deb atalgan bekaron osmon moʻʼjizalarini, beadam ummon sir-sinoatlarini bilishga, tushunishga safarbarlik. Va demakki, oʻz-oʻzini anglash uchun olis oʻzlik safariga otlangan Bilgish u. Uzlat, deganda u oʻziga, oʻzligiga, koʻngliga chekinyapti. Va lekin, koʻnglidan orom, taskin va yupanch topayotgani yoʻq. Koʻngilga safar qilishning ibtidosi - bu oʻz-oʻzini bilish, tushunish boʻlsa, intihosi esa Ollohn tanish, Olloh jamoliga etishish saodatidir. Uzlat - bu Olloh nomi koʻp bor zikr qilinadigan, ixlos-eʼtiqodlar namoyon etiladigan koʻngil toʻridagi mavodir.

Elda, "safaringiz bexatar boʻlsin", degan ibora bor. YAna, islomiy madaniyatda - soʻfiylik tariqatida "Safar dar Vatan", degan tushuncha ham bor. Bu demak, safar mavzui va yoʻl, yoʻlovchi obrazlari tasavvuf adabiyotida oʻzlik-koʻngil shevalari, koʻngil koʻchalari, dunyo moʻʼjizalari va Haq jamoliga

etishish bosqichlarini o'z ichiga oladi. "Safar dar Vatan"- bu ko'ngil vodiysining tabiatini tushunishga safarbarlik, bu o'zlikka safar, o'z-o'zini bilish sari otlangan mayl. Safar mavzui va yo'lovchi obrazi yaxlit uyg'unliqda islomiy madaniyatdagi komillik tabiatini nurlantirish barobarida Abdulla Oripov she'riyatidagi komil shaxs konsepsiyasining muhim xususiyatlarini anglashda bizga ko'mak beradi.

Abdulla Oripov o'zbek elining, turkiy ulusning yuksak milliy ruhiyatini o'z she'riyati orqali tanish va tanitish uchun olis safarga otlangan yo'l ahlidan, yo'lovchidir. A.Oripovning "Haj daftari", ya'ni "Hikmat sadolari" nomli ellik hadisdan iborat turkumi haj safari o'laroq yuzaga kelgan.

Turkumdagi birinchi she'r Ka'batullohga bag'ishlangan. Ammo unda Ka'batulloh madhi emas, balki, butunlay boshqa bir dardli haqiqat yoritilgandir. U shunday satrlar bilan boshlanadi:

Hanuz biri ikki bo'lmagan eldan,
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.
Bag'ri xun, tolei kulmagan eldan,
Keldim madad bergil, yo Ka'batulloh [....].

Ko'rinib turibdiki, shoir bunda yurt va millat dardini birinchi o'ringa qo'yayotir. Bu narsa «Hanuz biri ikki bo'lmagan», «Bag'ri xun, tolei kulmagan el» tarzidagi ifodalardanoq anglashiladi. Lirik qahramon Ka'batulloxda turib bir zamonlar zehni va fikrati dunyoni yoritgan el va bandi bo'lgan ulug' yurtining yaqin o'tmishdagi qismatini xayoldan o'tkazadi va deydi:

Duch kelgan sanamga sig'indik gohi,
Bizga keng ochildi SHayton dargohi.
Axir, nima edi elning gunohi,
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.
Xor bo'ldi Vatanda kimki ilmi bor,
Birovlar zar bilan topdi e'tibor
Hiylagar ko'paydi, ko'paydi makkor.
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh [....].

Albatta, inson o'z dardu hasratlarini to'kish yoki qayg'u armonlarini Ollohga

etkazish uchun Ka'ba ziyoratiga bormaydi. Lekin, vijdon va imoni butun yurak hech bir sirini Haqdan pinhon ham tutmaydi. Buni quyidagi satrlardan ham anglasa bo'ladi:

Qay zamon odamlar bad fe'lin sezdim,
Vafoli do'st izlab dunyoni kezdim.
Topmadim, topmadim, baridan bezdim,
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh [....].

Biri ikki bo'lmagan bag'ri xun, tolei kulmagan el - ulusning bir vakili bo'lib yashash ham oson kechadigan ish emas. Chunki, bunday yurtda va muhitda ko'pdan-ko'p ma'naviy-axloqiy muammolar tug'ilishi tabiiydir. Shoir o'zining yolg'izligi va yolg'izlanishi haqida so'zlarkan, ayni paytda har bir kishining fikr darajasi va saviyasiga qarab ham qullik va tobelik sharoitidagi inson qismati, xususan, ijodkor tolei xususida o'ylashga ham go'yo da'vat qiladi. To'g'ri, hamma etuk shoirlar ham odamzodning yomon fe'l atvoridan, vafoli do'st topa olmaganligidan nolib o'tishgan. Aks holda Alisher Navoiy «Mehr ko'p ko'rguzdim, ammo, mehribone topmadim» deb, Bobur esa «Jonim-din o'zga joni vafodor topmadim» deb yozmagan bo'lar edi. Lekin, Abdulla Oripovning Ka'batullohga borib iltijo qilishida juda muhim bir ma'no yashiringan. Bu ma'no esa, dindan ajratilgan xalq ahvoliga kuyunish va uning hidoyat yo'liga yuz burishidan keyingi hayotiga ishonchdir:

SHukrona ayturman o'zingga, yo Rabb,
YUz burdik hidoyat yo'liga qarab.
Haq degan yurtimning baxtini so'rab
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh [...].

Abdulla Oripovning aytishicha, «Payg'ambar» she'ri shoirning Madina shahriga borib payg'ambar maqbaralarini ziyorat qilgandan keyin yozila boshlangan. She'rda ta'kidlanganidek, Muhammad alayhissalom haqiqatda ham «Bashar farzandi», «Alloh rasuli», «Tengi yo'q inson». Mana necha asrlardan buyon musulmon xalklari adabiyotida u tengsiz zot haqida asarlar yaratilib kelinadi. Bizning mumtoz adabiyotimizda ollohga hamd va payg'ambarga na't

bag'ishlash ko'p asrlik an'ana tusiga kirgan. Biroq, hech bir shoir yoki, ijodkor Payg'ambar sha'niga loyiq so'zni topdim deya qanoatlangan emas. «SHariat binokori», «Tariqatga rahnamo», «Haqiqatga muqtado», «O'n sakkiz ming olamg'a sarvar bo'lg'on Muhammad» (A.YAssaviy.) alayhissalomni ta'riflash va madh etishda har bir talantli shoir o'zicha yo'l axtaradi va ijodiy izlanadi. Payg'ambar mavzui eng yuksak va ilhomli mavzu bo'lganligi, sidqidildan intilganligi uchun bunda, albatta, har qalamkash o'zining yangi gapini ayta oladi. «Men Muhammad alayhissalom hazratlarini - degan edi Abdulla Oripov, - ulug' faylasuf deb bilaman. U zotning hadisleri esa o'lmas badiiy tashbehlar bilan ziynatlangan mukammal she'riy lavhalardir. Ularning bari bobolarimizni ham, jumla-dan, bizni ham go'zal mantiqiy kuchi jozibasi bilan maftun etib kelmoqda».

Demak, hazrati Muhammad faqat Ollohning Rasuli sifatida emas, mislsiz shaxsiyat, tengi yo'q ijodiy salohiyat sohibi sifatida ham shoirimizni o'ziga rom etgan.

«Payg'ambar» she'ridagi «Siz - Olam sarvari, Siz - nuri jahon», «Rahmdil insonsiz, bag'ri keng Rasul»,- degan satrlar ham yuqoridagi da'voni isbotlashga xizmat qiladi. Payg'ambarlarga shafqat va muruvvat ko'rsatmagan dunyo, albatta, oddiy bandasini ham ayamaydi. SHu bois hattoki, payg'ambar qabrini ziyorati chog'ida ham:

Bir yonda imoni butunlar turar,

Bir yonda takabbur, manmanlar yurar.

Unda «Kimdir pok bo'lgali ichadi qasam, lekin ichi qora SHaytonga hamdam». Bular Hazrati Muhammadga «Ummat bo'lmoq saodat» ekanligini o'zlaricha anglashsa-da, ammo o'sha saodatdan benasib qoladilar.

«Payg'ambar» she'ri - tavba - tazarru bilan yo'g'rilgan she'r. Unda shoir «Ranju balolardan to'ygan» bir inson sifatida quyidagi xulosasini bayon qiladi:

Haq deb nina bilan tog'larni qazdim,

Bandaman, rost yo'ldan gohida ozdim.

Tavbamning izhori shu she'rni yozdim,

Assalomu alayka, yo Muhammad,

Assalomu alayka, yo Ahmad [...].

Tavbaga yuz burgan va Oллоhdan tavba eshigini ochilishini tilagan inson borki, ularning deyarli hammasi nafs va shayton haqida o‘ylaydi. Chunki, nafsni engmasdan va shaytonni tanimasdan tavbaga erishmoq mumkin emas. Imom Buxoriyning «Al jomi’-as sahih» asaridagi bir hikoyatda Rasulullohning "SHayton inson qon tomirlarida yuradi...", - degan fikrlari keltiriladi [12.382].

SHuning uchun SHaytonga qarshi kurashish va uni engish, nihoyatda qiyindir. Diniy va tasavvufiy asarlarda shaytonning ishlari, makr va hiylalari to‘g‘risida juda ko‘p bahs yuritilgan. SHu ma’noda SHaytonni adabiyotdagi asosiy timsollardan biri deyish mumkin. SHaytonga xos yomonlik va hiyla nayranglar inson tabiati va faoliyati orqali yuzaga chiqadi. SHuning uchun shayton bilan kurashish insondagi yomonlik, yovuzlik, johillik, hiylakorlik, makkorlikka qarshi kurashmoq ma’nosi bilan deyarli teng turadi. Haj safari - shaytonni la’natlash va uni tosh bo‘ron etish safari hamdir. SHuning uchun ham Abdulla Oripov SHaytonga bag‘ishlangan sherida:

Minoda SHaytonni qildik toshbo‘ron,
La’natga ko‘mildi badbaxt u lain.
Dedik, shuncha yukning ostidan SHayton
Ming yillar chiqolmay yotmog‘i tayin[...].

Haqiqatda ham «SHuncha yukning ostida SHayton ming yillar» davomida chiqolmay yotishi mumkinmi? SHE’r so‘ngida shoir ushbu savolga oddiy kitobxon kutmagan bir javobni topadi:

SHodumon yo‘l oldik Vatanga qarab,
SHayton qoldi, deya chuqurda – chohda.
Manzilga qaytgandik SHayton voajab,
Bizni kutib oldi tayyoragohda [...].

Demak, shaytonning hunari bu - insonning hunari. SHuning uchun ham inson istasa bir-biriga «-Sallani paytava qilib o‘ratgay»,

Agar sidqidildan ko‘rsatsa nayrang,
Nodonna shoh qilib yurti so‘ratgay.

Xullas, har bir kishi o'zidagi SHaytoniy xususiyat va sifatlarni bilmaguncha SHayton qiyofasini aniq tasavvur qila olmaydi. «SHayton» she'rida ilgari surilgan bosh maqsad ham ana shu edi.

«Haj daftari»da o'rta tashlangan fikr va tuyg'ularning bir qanchasi Abdulla Oripovning «Hikmat sadolari» turkumida ham davom ettirilib, yanada rivojlantirilgan. Buni Ona, SHayton va Ka'baga bag'ishlangan she'rlardan ham bilish mumkin.

«SHayton» deb nomlangan ikkinchi she'rda shoir go'yo tayyoragohda duch kelgan «SHayton» yolg'iz emasligini isbotlab:

U goho xojadur, gohida dastyor,
U goho paridur, sochlari sumbul.
Goho do'stman deb so'z boshlar sekin,
Lutfi g'oyat shirin totli zaboni[....].

- deydi. Qur'onu Karim va Hadisi SHariflarda shaytondan qutulishning bir qancha choralari ko'rsatib berilgan. Muhammad alayhissalom bir hadislarida «Men tushlaringizda ko'rsalaringiz, shaytonni tush ko'rmaysizlar. Chunki shayton hech qachon mening qiyofamga kira olmas»[7.361] degan ekanlar. Abdulla Oripov she'r xotimasida, aynan, shu hadisni asos qilib olgan:

Tushingda Rasulni ko'rdingmi - quvon.
Demak, ibodating erda qolmaydi.
Rasululloh demish: - SHayton hech qachon,
Mening qiyofamga kira olmaydi [....].

«Hikmat sadolari» tub mohiyati bilan Hazrati payg'ambarning aql, tafakkur va ko'ngil sadolaridir. SHuning uchun ularning deyarli har birida «Rasululloh dedi, Rasululloh demish», «Rasul amr qildi», «Rasululloh demishku ul dam» singari ta'kidli iboralardan foydalanilgan.

Abdulla Oripov ijodining dastlabki va undan keyingi bosqichlarida nafaqat Alisher Navoiy, Zahriddin Bobur, Boborahim Mashrab singari o'tmishdagi san'atkorlarning balki, XX asr o'zbek adabiyotining ustoz shoirlari Oybek, G'afur G'ulom, Maqsud SHayxzoda, Hamid Olimjon, Mirtemir kabi ustoz ijodkorlar

badiiy kashfiyotlarining mazmuni va mantiqini jiddiy o'rgangan, ularni ijodiy o'zlashtirgan. Ular yaratgan puxta an'analarning asl mohiyatini ham o'qib, ham uqib borishga intilgan. Bu da'voni isbotlaydigan dalillar Abdulla Oripovning maqola va adabiy suhbatlarida ko'plab uchraydi. Uning bir maqolasidagi quyidagi mulohazalariga diqqat qiling: «Oybek she'riyatdagi tamomila o'ziga xos poetik maktab hisoblanadi. Betakror Hamza, G'afur G'ulom va Hamid Olimjon singari Oybek ham qadimiy, go'zal she'riyatimiz tashbehlariga sodiq qolgan holda rus va jahon she'riyatining ruhi va chizgilarini adabiyotimizga dadillik bilan olib kirdi» [44.89].

«Abdulla Oripov o'zbek adabiyoti **etishtirgan** uch ulkan ustozining, xususan, uch fazilatini yaxshi o'zlashtirgan. Bular G'afur G'ulomga xos davr mohiyati va holatni chuqur idrok qilish, ya'ni falsafiylik. Hamid Olimjonga o'xshab she'r ustida bahodirona ter to'kib, so'zga sayqal berish san'ati. Va «beqiyos she'r lochini» Maqsud SHayxzodadagi xayol teranligi. Ammo Abdulla Oripov iste'dod yo'nalishi bilan, birinchi navbatda, G'afur G'ulomga yaqin. SHuning uchun ham u ijodining tiklanish bosqichlaridan boshlab G'afur G'ulomga - «buyuk shoir, faylasuf, hakim, adib, notiq» she'riyatiga ko'proq suyangan» [44.43].

Xullas, Abdulla Oripov ustozlarining mahorat «sirlari»ni kuchli ishtiyoq va bilimdonlik bilan o'rganibgina qolmasdan ularni yangicha shakl va ohanglarda rivojlantirib, ko'pdan-ko'p badiiy kashfiyotlarga erishgan.

Mumtoz she'riyatimizda ko'p qo'llanilgan va inson takdiri, holatlari bilan bog'liq xilma-xil ma'no va tuyg'ularni aks ettirishga xizmat ettirilgan she'riy timsollardan yana biri ko'ngil hisoblanadi. Tasavvufda inson ko'ngli Ka'baga qiyoslanadi, chunki ko'ngil Olloh tajalligohi hisoblanadi. Hazrat Navoiyda:

Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylagay ,

Oncha borkim Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay,-deyilgan
bo'lsa , A.Oripov ijodida :

Allohning qarorgohi

Har doimo Qalb bo'lgay.

Faqat Qalbi bor Inson

YOvqur bo‘lgay, alp bo‘lgay, - tarzida kuzatishimiz mumkin.
Hadisi sharifda esa “Kishi badanida bir parcha go‘sh bor, agar u tuzalsa,
a‘zolarining barchasi tuzalgaydir, agar u buzilsa, a‘zolarining barchasi buzilgaydir.
U qalbdir! “- deyilganida qalb pokligiga katta ahamiyat berilgan.

YAna bir hadisda: Kurash tushib yiqitgan emas, balki g‘azabi kelganda
ozini bosib olgan odam kuchlidir,[11.8]- deyiladi. Ushbu hadisning mazmunini
A.Oripov quyidagi she‘riy misralarda singdirgan.

Rasululloh lutf aylamish

Sahobalarga:

G‘azabini **engolsa** kim

CHin pahlavon emish .

YAna bir she‘rida :

Rasululloh dedi: Ko‘hnadir jahon,

Turfa xil kuch – qudrat bordir jahonda.

Lekin o‘z jahlini **engolgan** inson

Haqiqiy pahlavon erur olamda [...], - deya tasavvufda
qoralangan nafs balolaridan biri bo‘lgan g‘azabni **engish** haqiqiy – chin
pahlavonning ishi ekanligini ta’kidlagan.

Inson qalbini bulg‘aydigan yana bir illat borkim, bu g‘iybat deb nomlanadi.
G‘iybat va bo‘hton so‘zlarni aytish, tasavvufda qoralanadi, nafaqat g‘iybat qilish,
balki unga quloq solgan ham g‘iybatchining gunohiga sherik bo‘lar ekan. Bu illat
haqida hadisda shunday deyilgan: ” G‘iybat bu – eng yaqin o‘lgan qarindoshning
go‘shini **emoq** bilan teng”[7.78].

SHoir bu hadisni quyidagi misralarda mahorat bilan jo qilgan.

Jabroil aytdikim:- Bunda har kimsa ,

Jazosin olgaydir qilmishiga xos.

O‘limtik **eguvchi** bu banda esa,

Umrin g‘iybat bilan o‘tkazgan, xolos [....].

Tasavvufda barcha yaxshi fazilatlar insonni komillikka **etaklovchi** vosita hisoblanadi. Bu fazilatlar qanoat, kamtarlik, sabr, gʻayrat, adolat, saxiylik, mardlik, shafqat, saxovat kabilarni aytib oʻtishimiz mumkin.

Hadisda himmatli boʻlishga daʼvat yarimtagina xurmo misolida quyidagicha bayon qilingan: “YArimta xurmo bilan boʻlsa ham doʻzaxda saqlaninger”[7.33].

Abdulla Oripov esa nazmda buni mazkur shaklda sheʼrxonlarga tuhfa etgan.

Och qolgan goʻdakka saxovatli zot,

YArimta xurmoni dildan ilindi.

Bilgilki, bu himmat shu zum, shu zahot ,

Bus - butun savob deb qabul qilindi [...].

YAna bir hadisda “Bir moʻminning koʻngliga shodlik **etkazish** savobi odamlar va parilar ibodatlariga barobardir”,-deyiladi. Qurʼoni Karimning ”Anʼom” surasi 160-oyatida zikr qilinishicha, ”Kimki (bir) hasana (savobli ish) qilsa,unga oʻn baravar (koʻpaytirib yozilur). SHoirning quyidagi misralari yuqoridagi oyat va hadis mazmuniga naqadar uygʻun ekanligining guvohi boʻlamiz.

Demishlar, savob ish ofatni toʻsib,

Ezgulik yoʻliga shaylangusidir .

Eng kichik himmat ham toychoqdek oʻsib ,

Tulpordek savobga aylangusidir [...].

Rasululloh salollohu alayhi vassallam quyosh tutilganda qul zod qilishga buyurganlar [7.119].

Demasman ,Zulmatda mudom faryod qil,

Himmat nuri bilan dilni obod qil .

Rasululloh demish: - Oshma haddingdan,

Quyosh tutilganda qulni ozod qil! [...].

Xulosa qilib aytganda, A.Oripovning “Haj daftari”, “Hikmat sadolari” kabi toʻplamidan oʻrin olgan sheʼrlari bilan hozirgi oʻzbek sheʼriyatiga diniy-maʼrifiy gʻoyalarni birinchi boʻlib olib kirdi. Mazkur sheʼrlarda ilgari surilgan gʻoyalarning asl manbai islom dining muqaddas manbalari – Qurʼon va Hadis hisoblanadi. Bu

she'rlar yosh avlodni komillikka chaqiradi, ularda ezgu sifatlarni shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

BOB BO'YICHA QUYIDAGI XULOSALARGA KELINDI:

1. Abdulla Oripov ijodiyotida hayotning murakkab muammolari, xususan, inson qalbi va ruhiy olamida pinhon yotgan ilohiy his-tuyg'ularni aks ettirishda tasavvufiy she'riyat tajribalariga tayanish mayllari ham mavjud ekanligini e'tirof qilish o'rinlidir.

2. SHoirning "Haj daftari" va "Hikmat sadolari" kabi to'plamlari SHarq adabiyotida mavjud bo'lgan "Arbain"lar yaratishning davomi sifatida yuzaga keldi. Abdulla Oripov hazrat Alisher Navoiyning "Arbain" asaridagi falsafiy-axloqiy qarashlarni yangi voqelik, yangi hayot materialli asosida davom ettiradi.

3. Abdulla Oripov she'riyatida bir qancha diniy-tasavvufiy tushuncha va haqiqatlar mavjuddirki, shoir ularni ham yangicha poetik usul va obrazlar orqali talqin qilib berishga erishgan. Bular uzlat, darvesh, tavba, ruh, foniylilik, boqiylikdan va hokazalar.

4. «Haj daftari»da o'rta tashlangan fikr va tuyg'ularning bir qanchasi Abdulla Oripovning «Hikmat sadolari» turkumida ham davom ettirilib, yanada rivojlantirilgan. Buni Ona, SHayton va Ka'baga bag'ishlangan she'rlardan ham bilish mumkin.

III BOB

Zamonaviy o'zbek she'riyatida diniy–irfoniy mavzularga murojaatning o'ziga xos xususiyatlari

III.1. Jamol Kamol ijodida axloqiy-ma'rifiy g'oyalar talqinlari

XX asrning so'nggi yillariga kelib o'zbek milliy she'riyatida tasavvufiy motivlarga qiziqish sezilarli tus ola boshladi. Albatta, bu davr ijodkorlari islom falsafasidagi etakchi g'oyalarga murojaat qilar ekanlar, bugunning talab va istaklaridan kelib chiqqan holda masalaga yondoshishni ma'qul ko'radilar.

YAngi davr kishisining ahloqiy-estetik olamini har tomonlama to'liq shakllantirishning etakchi vositalaridan biri islomiy g'oyalar ekanligini ko'rsatish maqsadida shoirlar bir qator mavzularga murojaat qilmoqdalar. Mana shunday ijodkorlardan biri Jamol Kamoldir.

Jamol Kamol serqirra iste'dod sohibi. Shoir, tarjimon, publisist, adabiyotshunos olim hamdir. Jamol Kamol tarjimon sifatida xalqimizning ma'naviy mulkiga aylangan jahon adabiyotining nodir namunalarini mahorat bilan o'zbek tiliga o'girdi. “U bir necha tarjimon umri bo'yi qila olishi mushkul bo'lgan keng ko'lam vakatta miqyosdagi tarjimalarni bir o'zi amalga oshirdi - 30 ga yaqin alohida asar va 20 dan ortiq shoir she'rlarini o'zbekchalashtirdi.”²

Jamol Kamol shoir sifatida ham barakali ijod qildi va haqli ravishda O'zbekiston xalq shoiri bo'di. Uning “Olam kirar yuragimga”(1968), “Cho'qqilarga yog'ildi yog'du”(1971), “Tosh tug'yon”(1973), “Quyosh chashmasi”(1975), “Tafakkur”(1979), “Qadah”(1980), “Suvaydo”(1983) va “Saylanma”sida barmoq, aruz vaznlarida yozilgan eng sara she'riy asarlari o'rin olgan. 2012- yilda esa shoirning “Safar daftari”sheri to'plami chop etildi.

² Ochilov E. Jamol Kamolning tarjimonlik mahorati - O'zbek tili va adabiyoti. - T.- 2009 - № 4. - B. 26

Jamol Kamol she'rlarining mavzu-mundarijasi keng. Bu she'rlarda olam va odam mohmiyatini anglash etakchilik qiladi. Mohiyati anglash esa mushkul. Buni quyidagi sakkizligida shoir shunday tasvirlaydi:

Men uni izladim, izladim dilxun,
Tubiga etmoqqa ayladim niyat
Qanchalar bo'g'ildim, oqibat bir kun
Qarshimda ochildi o'sha mohiyat.
Unga qaraymanu aylanar boshim,
YAna chorasizlik yo'limni bog'lar.
Qay tarafdin boqmay, oqizar yoshim,
Qay tarafdin boqmay, ko'nglimni dog'lar [46.56].

E'tibor bersak, lirik qahramoning izlagani mohiyat-bu o'zlikdir. O'zlikni anglash mushkul. Mohiyat og'ir ekanini, unga qay tarafdin boqma, chorasizlik yo'lini bog'lab, ko'zdan yoshlar oqizishi lirik qahramon anglab etgan.

Inson umri ruhoniylardan borliqlardan, undan yana oxirat dunyosiga muborak bir safardir. Bu moddiy olamda u boqiy qolmoq uchun emas, balki haqiqiy vatani bo'lmish malakut olamiga qaytmoq uchun tug'iladi. Oralig'dagi yo'l-sinov yo'li. O'rtadagi maydon – quvonch va qayg'u, mehnat va mashaqqat, rost va yolg'on, zafar va mag'lubiyat, baxt va baxtsizlik maydonidir. Xullas, odamning taqdiri va hayot yo'li bir safar, bir hijrat mazmuniga ega. Tasavvuf tilida esa hijrat - yomon va tuban fe'l –atvor, chirkin sifatlarni tark aylab, go'zal axloq va latif fazilatlar yurtiga borish demakdir. Mohiyatni anglamoq uchun esa ana shu sinov yo'lini mukammal bosib o'tmoq darkor.

Jamol Kamol she'riyatida haqiqat, aniqrog'i ilohiy Haqiqat mohiyatini anglashga qaratilgan g'oyalar ham ko'zga tashlanadi. Bilamizki, haqiqat toqdir, Haqdan yaralgani bois yakkayu yagonadir. Haqiqat ko'kda ham, erda ham hokim. Faqat zamindagi hukmronligi, ko'kdagidan farqlanadi. Negaki, zaminda yolg'on ham hukm yuritadi. Allohning yaratilari ichida yolg'iz insongina yolg'onni-haqiqat, haqiqatni esa yolg'on deya bayon aylanay oladi. SHoir lirik qahramoni esa:

Haqiqat, men seni sevdim,

O‘zing Rabbimsan, Ollohim.

Seni derman, seni gar kelsa

Boshimga qiyomatlar...., [46.11]-der ekan Iloh va olam mohiyatni to‘g‘ri anglashga harakat qiladi.

Ma’limki, tasavvuf ta’limotida insonni noqis xislatlardan forig‘ qilishni targ‘ib qilinadi. SHuning uchun islomiy ruh berilgan bu umuminsoniy qadriyatlar zaminida insoniy fazilatlar ulug‘lansa, salbiy qusurlar tanqid qilinadi. Mana shunday qusurlardan biri baxillik. Jamol Kamolning “Baxillik” she’rida baxilning haqiqiy qiyofasini chizib beriladi. SHe’rda ko‘ngil oynasi toza kishini “Pok-pokiza yurak- bir qatra simob” tarzda tasvirlasa, baxilni “Is bosgan mo‘ridek ichlari tutun” kabi tasvirlar bilan qiyofasini chizib beradi. SHoir baxilning ahvoliga achinadi. Bunday odamlarni soyaga qiyoslaydi. Baxillik inson hunari emas, iblisning ishi deya ta’riflaydi:

Inson hunarimas, iblisning ishi,

Haq so‘zi ishq bilan insho, deganlar[46.109].

Xalqimizda “Baxilning qo‘lidan non emoq o‘limdan og‘ir” degan maqol bor. SHoir she’rda mazkur maqolni keltirish orqali baxilning haqiqiy qiyofasini chizib beradi.

Baxilning qo‘lidan burda non emak,

O‘limdan og‘irdir... o‘ylagil bundoq

Baxillik degani- badbaxtlik demak,

Badbaxtlik esa shu dunyomizga dog‘.

Horun bo‘lmasam-da, ochdan o‘lmadim,

YAshadim goh tikan, goh gul bilan.

Lekin baxtim shuki, baxil bo‘lmadim,

Dunyodan o‘tarman oq ko‘ngil bilan[46.109].

SHe’rda talmeh sifatida keltirilgan Horun-xasislik timsoli. Lirik qahramon o‘z hayot tarzidan mamnun. U Horundek boy bo‘lmasa-da, uning barcha boyliklardan ham a’lo oq ko‘ngli bor.

Jamol Kamol insoniyat qalbi va ruhini tarbiyalash, ya'ni davolash, Haq va Haqiqat maqomlariga yuksaltirishga qodir SHarq falsafasining o'lmas g'oyalari o'z she'rlariga singdirgan shoir. U "SHoirga" she'rida "olamni ma'raka" maydonga o'xshatar ekan, insonni "Haqiqat tuyg'usi bilan muzaffar" yashab o'tishga chorlaydi:

Olam-ku ma'raka maydonga o'xshash,
Umrlar yonadi olovlarida.
Hayotda gohi sulh, gohida savash,
Hayotning aldovu dalg'ovlarida.
SHoirim, borasan sen ham muqarrar,
Balki uvoqdirsan, balki yirikdirsan:
Haqiqat tuyg'usi bilan muzaffar,
Haqiqat tuyg'usi bilan tiriksan. [46.98].

Jamol Kamol ijodida Imom G'azzoliy, Umar Xayyom, Fariduddin Attor ijodidan ta'sirlanish, ayniqsa, Eronga safari taassurotlari, shoir qalbidan kechgan rangin tuyg'ular "Safar daftari" turkum she'rlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, Umar Xayyom ruboiylari ta'sirida yozilgan she'rarida tasavvufona g'oyalar balqib turadi:

Yo Rab,senga bandaman tirik tuproqman,
Bir kun kam esam,ertasi kun ko`proqman,
Shiddat bilan esma, muncha silkitma, shamol,
Anvoyi og`ochda bir yashil yaproqman...[48.19]

Tasavvuf adabiyotida eng ko'p tilga olinadigan mavzu bu-"tuproq". Ramziy ma'noda kamtarlik g'oyasi tuproq timsolida mujassamlashadi. Buning asosi esa Qur'onga borib taqaladi .Odam Atoning yaratilishi bilan bog'liq.Tuproq kamtar bo'lganligi uchun ham Alloh insonni tuproqdan yaratgan edi. Tasavvuf adabiyotining yirik namoyondasi Yassaviy ham "Tuproq bo'lgin olam seni bosib o'tsin" deganida ham katta ma'no mujassam.So'fiy bu tuproqsifat kishi. Tuproqning saxovati cheksiz, lekin u manmanlik qilmaydi.Faqatgina Jamol Kamol ijodida "Tirik tuproq" birikmasi bilan berilishini kuzatamiz. She'rning birinchi

misrasida Inson yaratgan oldida o`zini ojiz banda ekanligi his etib yashashi, imkon boricha kamtarlikni kasb qilib olishilozimligi ta`kidlangan bo`lsa, ikkinchi misrada esa bu sinovli dunyoda inson hayoti doim bir tekisda kechmasligi tasvirlangan. Uchinchi misrada “shamol” obraziga murojaat qilingan. Shamol to`rt unsurdan biri bo`lib, tasavvuf adabiyotida ramziy ma`noda shoshqaloqlikni ifodalab keladi. Tuproq va shamol o`zaro zidlantirilib, tazod san`atining go`zal namunasi orqali yashil yaproqni silkitib turadigan shamol bu insonni salbiy sifatlarga boshlydigan nafsga ishora qilinadi. “Anvoyi og`och” bu tobut timsoli. Sherda bir so`z bilan aytganda dunyoning o`tkinchiligi g`oyasi singdirilgan. Bu o`tkinchi dunoyada shamol - nafsning yoliga urmasdan, balki tuproq singari kamtar bo`lishga chaqirilgan.

Xulosa qilib aytganda, Jamol Kamol she`rlari bugungi o`quvchi uchun tushunarli g`oyalar bilan sug`orilgan. Bu g`oyalar inson ruhini tozartirishga xizmat qiladi. Xo`sh, ruh nima? Ruh – sening insonliging. Hamma narsa parvarishga muhtoj bo`lganidek, ruh ham parvarishga muhtoj. Uni yuvib, tarab turish kerak. Yo`qsa, tubanlashib ketadi. SHu ma`noda Jamol Kamol ijodiy merosining o`lmas g`oyalari mag`zida Allohning erdagi vakili – insonga faqat nafsing uchun yashama, hayvon darajasiga tushib qolma, deb ogohlantirib turadi.

III.2. Sirojiddin Sayyid lirikasida diniy-ma`rifiy g`oyalar talqinida o`ziga xoslik

O`zbeklar yurti azal-azaldan shoirlar vatani, O`zbekistonning o`zi shoir bir yurt. SHE`riy idrok, she`riy nafosat, poetik tuyg`u bolaligidan xalqimizning vujud-vujudiga singib ketgan. SHu boisdan ham qadim SHarqda shoir bo`lish nihoyatda sharaflil va nihoyatda mas`uliyatli. Bu xalq badiiy so`z dahosi Alisher Navoiy ijodidan bahramand. XX asr o`zbek poeziyasi, uning mashhur namoyandalari ijodi ana shu jasorat dalilidir.

Davr va adabiyot munosabati juda murakkab muammodir. CHunki zamonning asosiy belgisi uning tinimsiz harakatdaligi, o`zgarib turishi bo`lsa, asl

adabiyotning bosh xususiyati uning o'zi yaratilgan zamonga qaraganda ko'proq yashashga intilishidir. Sirojiddin Sayyid she'riyati ana shunday umrboqiy yashay oladigan she'riyatdir.

U 1958- yilda Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida joylashgan Kundajuvozi qishlog'ida o'qimishli oilada tug'ilgan. SHu kunga qadar uning "Ruhim xaritasi", "Saqlin xarsanglar kaftida", "Sevgi mamlakati", "Asragil", "Mehr qolur, muhabbat qolur", "Kuydim", va "Vatanni o'rganish", "Vatan abadiy" (2001), "Ustimizdan o'tgan oylar" (2003), "Qaldirg'ochlarga ber, ayvonlaringni" (2006), "Ko'ksimdagi zangorlarim" kabi bir qator she'riy to'plamlari nashr bo'ldi. Uning birinchi "Orzu" degan she'ri 1975-yili chop etildi. Birinchi to'plami "Ruhim xaritasi" nomi bilan bosilib chiqdi.

Sirojiddin Sayyid she'riyatining o'ziga xosligi bu inson ruhiyatining falsafiy-psixologik tahlili orqali shaxsni kamolotga etkazishda, komillik alomatlarini ulug'lashda ham ko'zga tashlanadi. Uning betakror she'riyatida milliylik, tarixiylik, go'zallik, ezgulik, adolat singari bashariy qadriyatlari etakchi mezonlar bo'lib bormoqda. Sirojiddin Sayyid she'riyatida xalq og'zaki ijodiga xos sodda, ixcham ifoda usuli mumtoz adabiyotimiz ohanglari bilan uyg'unlashib ketadi.

Sirojiddin Sayyid she'rlarida hayotga sezgirlik, hayotiy hodisalarga qiziquvchanlik, odamlar taqdiriga mas'ullik hissi hukmron. SHoir jo'shqin hayotning dolzarb muammolari, qaynoq nafasi og'ushida yashab kelmoqda. SHoir ijodiy individualligining o'ziga xosligi shundaki, hayotimizdagi shunday hodisalarni, odamlararo munosabat ko'rinishlarini tanlab oladiki, u shoir qalbida katta bir ilhom alangasini yoqadi.

Sirojiddin Sayyid she'rlari mavzu jihatdan rang-barang. Ayniqsa, keyingi yillarda yaratilgan she'rlarida ilohiy-irfoniylar mavzular bo'rtib turishi alohida e'tiborni tortadi. Olam va odam mohiyatini anglashda diniy, ilohiy, tasavvufiy ta'limot hamisha adabiyotning, ayniqsa, she'riyatning asosiy manbalaridan biri bo'lib kelgan. Bunday sarchashmalarga murojaat qilish orqali Sirojiddin Sayyid o'z fikriylar silsilasini yangilaganiga guvoh bo'lish mumkin:

Seni bor etdi nechun, bir o`ylagil,
Nomdor etdi nechun, bir o`ylagil.
O`tni Ibrohim Xalilga ul zamon
Lolazor etdi nechun, bir o`ylagil [64.68].

Diniy manbalarda Alloh insonni yaratib, uni o`n sakkiz ming olamda barcha maxluqotlardan aziz-u mukarram etganligi, diniy afsonalarda esa yuksak e`tiqodi sabab payg`ambar Ibrohim (**s.a.v**) kofirlar tomonidan gulxanda yondirilganida, otash-alanganing gulzorga aylangani aytiladi. Sirojiddin Sayyid Qur`oniy rivoyatlar orqali inson o`zligini anglashga, ogoh va pok bo`lib yashashga da`vat etiladi.

Sen yasharsan, o`z g`aming, kuying uchun,
Gohi qasqoning, gahi qo`ying uchun.
Zo`r yumush-chun Haq yaratmishdi seni,
Seni paydo qilmadi o`yin uchunt [64....].

Bu misralar orqali shoir insonni turmush ikir-chikirlariga o`ralashib, umrni o`tkinchi hoyu-havas yo`lida behuda o`tkazmaslikka, aksincha uning har soniyasini ardoqlab, ezgu ishlar qilishga, umuminsoniy manfaatlar yo`lida sarflashga chorlaydi. Shoir “o`yin” so`zini “yengil-yelpi hayot” tushunchasida istiora sifatida qo`llab, o`z g`ami, tashvishi, nafi, boylik orttirish ilinji bilan o`tkazilgan hayotga “o`yin” tushunchasini antiparallelizm qilib qo`llagan. Yoki yana shoir yozadi:

Qay tomondin kelganingni anglagil,
Anglagil ham ketmagingni qay tomon[64....].

Adabiyotning bosh mavzu “komil inson”ni tarbiyalash. Shoirning “Ko`ksimdagi zangorlarim” to`plamidagi qator to`rtliklarda mazkur mavzuga qayta va qayta murojaat qilinadi.

Sirojiddin Sayyid bu to`rtliklarida Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg`oniy, Jaloliddin Rumiy, Abu Homid G`azzoliylar tomonidan ilgari surilgan tasavvufiy g`oyalarni yangi bir davrda, yangi bir sharoitda takrorlab, ularni o`z davri ehtiyojidan kelib chiqib badiiy talqin qilishga harakat qiladi. Jumladan, quyidagi to`rtlikda shoir ilohiy ma`rifatni egallashga bel bog`lagan kishining ruhiy-axloqiy

qiyofasini badiiy tasvirlab beradi. Kamolot yo`lidagi birinchi qadam esa – tavbadir:

Nafsingga avval nizolar istagil,
Har kuningga so`ng rizolar istagil.
Istama qasringga oltin poyalar,
Tavbadin sinmas asolar istagil [....].

Shoir to`rtlikda tavbani tariqatning ilk maqomi sifatida barcha yomonliklardan qaytishning asosi ekanligiga urg`u beradi. Shu bilan birga tavba inson iymon-e`tiqodi mukammal bo`lishining tayanchi, shoir tili bilan aytganda, “sinmas aso”sidir.

O`zni fikrat qa`riga urdingmi hech,
Yuz yuvarda o`ylabon ko`rdingmi hech:
Qo`l-u yuz kiri ketar, ko`ngil kirin
Tavbalar seli bila yuvdingmi hech? [....].

Inson har dam o`z kamchilik va nuqsonlarini anglab, nafs tufayli noto`g`ri qo`ygan qadamini nazorat qilishi, barcha yomon odatlardan tiyilishi, gunoh ishlardan qochishi lozim va qilgan gunohlari uchun tavba qilishi – ko`nglida pushaymonlikni his etib, gunohlarining kechirilishini so`rab, Allohga munojoot qilishi va gunoh ishga qo`l urmaslikka qat`iy ahd qilishi kerak. Tavba astoydil va samimiy bo`lsa, oldingi qilingan barcha gunohlar kechiriladi. Qo`l-yuzning toza bo`lisiga bir hovuch suv kifoya bo`lsa, ammo bilib-bilmayin qilingan gunohlar tufayli kirlangan ko`ngil tozarishiga esa chin dildan umidvorlik ila qayta-qayta tavba qilmoqlik asos bo`ladi deyiladi.

Vara' (parhez) tariqat maqomlardan biri bo`lib, ma'naviy zarar keltiradigan shubhalardan saqlanishdir. Quyidagi to`rtlikda ko`z bilan qilinadigan gunohlardan saqlanish lozimligini uqtiradi:

Ko`zni asra, ko`zni berkit, ko`zni yop,
Ko`zni yopgil, **o`z o`z ichingdan** O`zni top.
To ajal ilkis seni yopmay turib,
Chora – tadbiring ko`rib, sen o`zni yop[....].

“Ko`zni asra, ko`zni berkit” deyilganda, qalb ko`zi nazarda tutilmoqda Chunki o`z qalbiga nazar solish o`zlikni anglashning shartlaridan biridir. Bunga esa inson ajali etmay turib erisha olmog`i lozim.

U "Dunyo masali" nomli she`rida shunday yozadi:

Ranju g`am azaldan barobar kelur,
Alar bir-biriga birodar kelur.
Nechun sevinchlaring bir xil, ayo,
Dunyo, nechun armonlaring bunchalar rangin? [...]. –

degan savol qo`yar ekan, insonlarning tutgan ishidan hayron bo`ladi. YA`ni xoru zabunlikda qolgan insonlarga ko`makka o`z jinsi emas, sut emizgan jayronlar kelganidan, insonlarning badbinligidan kuyinadi. SHoir buning sababini, albatta, o`zi biladi. SHE`rxonning esa ma`lum islomiy bilimga ega bo`lmasdan anglashi dushvor.

Ma`lumki, Qur`onda bu dunyo hayoti kishilarning imtihon joyi, deb ta`riflanadi. YA`ni bu dunyo hayoti oxirat saodatiga erishish uchun vositadir. Hayotning barcha sohasi, jarayoni kishilarning imtihon joylaridir. Haqiqiy musulmon bo`lish uchun imon keltirishing o`zi kifoya emas, balki kengchilik va qiyinchilik paytlarida, daqiqalarida, ham islom ta`limotiga bir xil amal qilgan kishilargina haqiqiy musulmon sanaladi. Dunyodagi yaxshilik ham, yomonlik ham, aslida, imtihon uchundir. "Anbiyo" surasinipg 36-oyatida shunday deyiladi: "Imtihon uchun sizlarni yaxshilik va yomonlik bilan sinab ko`ramiz va oxirida hammangiz bizga qaytasiz".

Demak, ranju g`am, sevinch bir xil-u, lekin ularning sinovidan inson qanday o`tadi? SHundan ularning armonlari har xil.

Xursandchilik, dabdababozlik, hashamatchilik inson irodasini zaiflashtirib, doimiy lazzatga moyil qiladi, qiyinchilik, g`am, azob-uqubat irodani chiniqtiradi, mustahkamlaydi, SHoir she`riningso`nggi misrasi shunday:

Bir akam bor edi begonalardan,
Uni ham o`tkarding o`txonalardan,

Nechun giryonlaring kular, ay,

Dunyo, nechun ba'zi shodlar uchraydi g'amgin [...].

Demak, giryon qilganlar, qalbi poklanganidan xursand, shodlar esa sinovdan o'tgan o'tmaganini o'ylab g'amgin.

Ota-onani hurmatu izzat qilish, ularning aytganini bajo keltirish, ranjitadigan ishlar qilmaslik, hech narsaga muhtoj etmaslik farzandlik burchi sanalishini uqtirish islom axloqida bor. Haqiqatan ham, nasroniy xalqlarida bunday aqida yo'q. Bu SHarq xalqining yuksak axloqidan dalolat. SHoirning "Hikmat" nomli she'ri zaminida shu g'oya yotadi.

SHoir hikmatni na bog'u bo'ston, na malikaning chorbog'ida, na dunyo, na chinorning yaprog'ida emas, balki

Hikmat - bu dunyodan intizor o'tgan

Otang mozorining tuprog'idadir, - deydi. U hikmatni shunda ko'radi. Demak, ota o'limidan oldin, farzandiga yo'lga ko'z tikkan. Bunga majbur qilgan farzand bugun armonda. Har o'ylaganda ko'ngli o'rtanadi. O'rtangan sari insoniylik sari qadam tashlaydi, to'g'ri yo'l sari yo'naladi. CHunki u ruhan poklanadi.

Armon chekan odam ham aqlan, ham ma'nan etuk shaxs hisoblanadi. Negaki o'z qilmishlarini taroziga solib, mushohada qiladigan, ba'zi ishlaridan nadomat chekadigan kishi armon chekadi, Sirojiddin Sayyidnig lirik qaxramoni, ya'ni "men" shunday shaxs:

YOshlik edi, bir o'zimni o'ylab yurdim,

O'z onamning sochlarini oqartirdim.

Devorlarni tirnaganda bargi xazon,

Nechun jismim zirqraydi o'sha zamon? -[...].

deydi. "Umr asta aylanarkan aziyatga" deb boshlanadigan she'rida. O'z qilmishini o'ylashlik, o'z onasiga ozor berganidan pushaymonlik, undan ruhiy ezilishlik ham SHarq xalqlariga xosdir. CHunki bunday qilmishlar gunoh sanaladi. Bargning xazon bo'lishi umrning tugashidir. Uning uzilganda devorlarni tirnashi shoir qalbining tiralishidir. Bu erda barg

qismati - inson hayotiga ishora. Insonning hayotdan ketishi shoirning qalbini zirqiratadi.

Ko'ngil, ko'ngil, qay yo'llarda to'kildim men?

Seni oxir o'z holimga qul qildim men [...].

Demak, ko'ngilni havoi-nafs o'z to'rtga tushirgan. Bu hol insonni tabiiy intizomdan chiqaradi, istaklar orasidagi tenglik buziladi. Havoi-nafs ustun chiqib, boshqalarni chetga suradi. Irodasi zaif, bilimi oz odam havoi-nafsga beriladi. Qur'onniig "An'om" surasining 119-oyatida shunday deyiladi: "Albatga, ko'p odamlar ilmsizligi uchup havoi-nafsga berilib, yo'ldan adashadilar".

Ko'ngilni mayllarga bo'ysundirgan shoir o'zining qay axvolga tushganini shunday yozadi:

Tutgan yanglig' xoru xasning uvollari

Joy so'raydi mendan kuzak shamollari.

Lek men o'zim qay holda va qaydadirman?

Adirlarda qolib ketgan chamladirman [...].

Bundan tegishli xulosa chiqarish insonning ma'naviy dunyosini boyitadi, qadamini bilib bosishga undaydi. Qur'on dunyoviy bilim bilan ruhiy bilimning uyg'unligidagi ilmdir. Islom hamisha maxfiratga, yaxshilikka, yomonlikdan qaytarishga da'vat etadi.

Ulug' salaflar mahorat maktabidan o'rganish samarasi bo'lsa kerak, Sirojiddin Sayyid she'rlarida teran falsafiy fikrlarning betakror poetik ifodasi darajasidagi baytlar, bandlar anchagina. Hazrat YAssaviyning "Ko'ksimdagi zangorlarim ketarmukin" misrasiga tazmin o'laroq yaratilgan she'ri, hadislarining nazmiy talqinlari, xalqona hikmatlar singdirilgan asarlari buning isbotidir. Bir qarashdan sodda tuyuladigan, lekin o'quvchini umrning mazmuni, olam va odamning mohiyati haqida mushohada etishga undaydigan mana bu misralar hazrat YAssaviy hikmatlarini esga tushirishi bilan ham ahamiyatlidir.

Kelib ketmoq o'yin ermas, sayohat yo ziyorat,

Umr yo'li zahmatlaru mehnatlardan iborat.

Ko'ngillarga qurdingmi bir ko'prikmi yo imorat?

Qurganlaring o'zingniki, qurmaganing gumondir [...].

Ko'ngillarga imorat qurish, vayron dilni obod etish haqida ko'p yozilgan. Sirojiddin Sayyidning ushbu bitiklari ularning birortasiga o'xshamasligi bilan ham qimmatlidir.

“Dil fasli” kitobi – shoir ijodining, ta'kidlanganidek, kamolot bosqichiga mansub. Kitobning “Boybuva duo aylang...” (“Bozor ijodiyoti”dan) deb nomlandan alohida bo'limida shoir kosa tagida nimkosa tarzida milliy ma'naviyatimiz rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan hodisalarni qoralaydi. “Bosh qolib qorin bilan o'ylaydigan”lar hech qachon yurtning koriga yarashi mumkun emasligini ta'sirchan ifodalaydi. “Ichi to'la riyo, ko'ngli qaro” kimsalarning “kiyib yurgan choponlari zar rang” ekaniga taajjub izhor etadi. Ularning surati van siyrati mutanosib emasligini hajv qiladi.

Muborak hadislardan birida “Kishi biror gunoh amalga qo'l ursa, uning qalbida bir qora nuqta paydo bo'ladi. Tavba qilmay, gunohlarda davom etsa, qora nuqtalar soni ham ko'payib boradi”, deyiladi. SHoirning mana bu misralarida ana shu hadis mazmuni go'zal poetik ifodasini topgan. Sirojiddin Sayyid she'riyatida muborak sarchashmalardan bahramandlik ta'siri kuchayotgani isbotidir:

Men bu chaman sahnasida

oshiq bo'lib kelgan edim,

Gul rangiga tushundimu

dil zangiga tushunmadim [...].

SHoir riyokorlik, ko'ngli qarolik dilni zang bosishiga sabab bo'lishini obrazlar, timsollar vositasida tasvirlaydi.

“Axtaraylik” g'azalida millat turmush tarziga kirib kelayotgan nobop a'mollar hajv tig'iga olingan. Buyuk Xorazmiy mashhur “Muhabbatnoma” da “Aning kim, ol yuzinda meng yaratti, Boyi birla sochini teng yaratti” deya sochining boyi bilan tengligini yor go'zalligiga dalil o'laroq madh etgan edi. Taassufki, zamonamiz shoirlari endi bunday misralarni ijod qilish imkoniyatidan mahrumdirlar. Ijod qilsalar ham yor sochining boyi bilan emas, boyni bilan tengligi

haqida yozishlari mumkin, xolos. Sirojiddin Sayyidning kesilgan zulflarga oid mana bu bayti ham fikrimizni tasdiqlaydi:

Bo‘yinlar osilur zulflar kesilmish,
Biz endi o‘zga bir dor axtarayluk.

Millatparvar CHO‘lpon “Sadoi Farg‘ona” gazetasida 1914-yili bosilgan bir maqolasida mana bunday yozgan edi: “Ey qarindoshlar... katta iltimosimiz shuldurki, ovro‘poning mo‘dosidan, shishasidan va buzuq axloqidan namuna olmasdan va bunlarga bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki ilm, fan, hunar, sanoatga o‘xshashlik madaniyatlaridan namuna olib, bul jihatdan taqlid qilmoqimiz lozimdur. Ovro‘poning mo‘dosi, shishasi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bevatan, asir, qul qiladur. Bundan saqlaningiz!”

Taassufki, CHO‘lpon qo‘rqqan hodisa ro‘y berdi. Har uchala voqelik – Ovro‘poning mo‘dosi, shishasi va buzuq axloqi millatning turmush tarziga turli yo‘llar bilan kirib keldi. Eng yomoni, vujudni ko‘z – ko‘z qilishga, yalang‘ochlikka ruju qoyilayotganidir. Milliy axloqqa qaratilgan bu tahdid o‘tgan asr boshida CHO‘lponni nechog‘lik oylantirgan bo‘lsa, uning voqelikka aylangani yangi yuzyillik avvalida Sirojiddin Sayyidni shunchalik iztirobga soladi. Mana bu misralardagi achchiq istehzo sababi shu:

Ko‘rib kindiklarini halqa taqqan,
Qochaylik, bir chuqur g‘or axtarayluk [...].

Milliy axloq, uni asrash haqida qayg‘urish millat ziyolilarining zimmasidagi mas‘uliyatdir. SHoirning bu kabi she‘rlari ana shu mas‘uliyatni his etish, ertangi kun uchun kuyinish samarasidir.

Sirojiddin Sayyid zamonaviy milliy adabiyotimizda o‘z o‘rniga ega, e‘tirofga sazovor shoirlarimizdan. “Ruhim xaritasi”dan “Dil fasli”gacha har bir kitobi, har bir she‘ri shoir ijodining yangi, yanada baland miqyoslarga ko‘tarilishi uchun asos bo‘lib kelayotgani ham buning isbotidir.

Xulosa qilib aytganda, shoirning barcha mavzularda yozgan she‘rlari go‘zal, ma‘noli va yodda qolarli tarzda ifodalangan.

III.3 Farida Afroʻz sheʻriyatida maʼnaviy-axloqiy muammolarning noanʼanaviy talqini

Mustaqillik yillarida hamma sohalarda boʻlgani kabi oʻzbek adabiyotida ham mazmun va shaklda yangilanishlarni kuzatishimiz mumkin. Xalq ogʻzaki ijodi, oʻzbek mumtoz adabiyoti anʼanalari, jahon adabiyoti taʼsirida adabiy janrlar, ayniqsa, lirik janrlar paydo boʻldi. Yangi lirik janrlarning paydo boʻlish sabablari, ularning oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganish adabiyotshunosligimizdagi muhim vazifalardan biridir.

Adabiyotshunoslikda lirik janrlar taraqqiyotini oʻrgangan olimlardan pedagogika fanlari doktori, professor Qozoqboy Yoʻldoshev, “Ulkan tuygʻularning moʻjaz suratlari”, Laylo Sharipova “Oʻzbek sheʻriyatida uchlik janri”[41] tadqiqotlarida mazkur tur janrlarining shakl va mazmun yangilanishlari haqida ilmiy farazlar ilgari surilgan. “Anvar Obidjon uchchanoqlar yaratdi, Azim Suyun toʻrt qatordan ortiqrogʻ-u besh qatordan kamroq boʻlgan qayirma janriga asos soldi... Farida Afroʻz esa ana shu xayrli jarayonga qoʻshilib, oʻzining “tasbeh” janridagi bitiklarini dunyoga keltiradi”[65.4],- deyiladi Q.Yoʻldoshev maqolasida.

Farida Boʻtayeva (Farida Afroʻz) 1956-yilda Qoʻqon shahrida tugʻilgan. Muqimiy nomidagi Qoʻqon pedagogika institutida tahsil olgan. “Qirqkokilligim” (1986), “Iztirob koʻylagi”(1992), “Tunlar isyoni” (1994), “Koʻzim mani...” (1999), “Oʻzimdan oʻzimgacha”(2001), “Ushshoq”(2004), “Tasbeh”(2006) kabi sheʻriy toʻplamlari nashr etilgan. “Qurbonjon dodxoh” (2000) tarixiy dramasi ham bor. “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan.

SHoira sheʻrida yurtiga boʻlgan mehr bilan yoriga boʻlgan muhabbat uygʻunlikda keladi. Tabiatdagi hodisalar, ulardagi manzaralar misoli koʻzgudek lirik "men"ning ichki kechmishlari, tuygʻulari koʻrinib turdi.

Farida Afroʻz sheʻrini oʻqiganda "Haqiqiy sheʻrning mazmununini gapirib boʻlmaydi, uni his qilish kerak" degan fikrning haqiqat ekanini kishi tan oladi. Haqiqatan ham, tuygʻuni, ruhiyatning mazmunini soʻzlab ham, uning shaklini chizib ham boʻlmaydi. Lekin his qilinganda, maʼnaviy va ruhiy ehtiyoj qonadi.

90 - yillar she'riyati ko'ngildagi kechinmalar va ruhiyatdagi jarayonlarini badiiy ifodalash ehtiyoji samarasidir. Bu davrda mumtoz she'riyatining janrlarini zamonaviy shoirlar tomonidan isloh qilindi. Bu davr she'riyatida tasavvuf ta'limotidagi qarashlar hamda modernizm yo'nalishi namoyandalarning uslub va izlanishlari badiiy uyg'unlashtirildi.

Farida Afro'z ham ana shu xayrli jarayonga qo'shilib, o'zining "tasbih" janridagi bitiklarini dunyoga keltirdi. "Tasbih" arabchada "poklash", "maqtash" ma'nolarini anglatib, ilohiy istilohda Allohning poklash, uning har qanday kamchiliklaridan holi, eng buyuk, eng qudratli, eng mehribonligini madh etishni bildiradi. Farida Afro'z ayollarga hos nazokat bilan odatdagi tasbihning donalari kabi har o'ttiz uch "tasbih"dan to'qson to'qqiz misrali bir marjon yasab, Yaratganni poklashga, bandasi ruhiyatidagi kechgan tuyg'ularni ifoda etishga urinish mahsullarini maxsus she'riy janrga aylantirib, tasbihni badiiylashtirdi.

"Tasbih" janri milliy she'riyatimiz tajribasida ham, xalq og'zaki ijodida ham uchramaydi. To'g'ri, o'zbek poeziyasida uchlik bandlardan tashkil topgan she'rlar bor edi. SHuningdek, yapon xokkularidan ta'sirlanib yozilgan uchliklar ham bo'lgan. Lekin mustaqil uchlik tasbihlaridan iborat butun bir kitob tartib berilishi va har to'qqiz uch tasbih bir shodaga tizilib, etti she'riy marjon hosil qilinishi milliy poetik tajribamizda bo'lmagan edi.

"Fiqra" so'zi garchi mumtoz adabiyotimiz tarixida "fiqrai rangin" yo'sinida birikmali qo'llangan bo'lsada, u adabiy janrni emas, balki asarlardan olingan go'zal parchalarni anglatgan. Farida Afro'z fiqrani janr maqomiga chiqarib, bu nom ostidagi bitiklarida o'z ruhiyatining parchalarini ifodalashga uringan. SHoira fiqralarda fikr bilan birgalikda suvratlangan ruhiy holatning harakati sezilib turishini ta'minlashga erishgan. Ularda harakat dinamikasi, aytilganlarini xayolan davom ettirish imkoni bor. Bir qaraganda, shoiraning figuralari "qiyqim fikrlar" yoki "daftar hoshiyasidagi fikrlar" tarzida nomlanagan mo'jaz bitiklariga o'xshab ketadi. Lekin bu faqat bir qaraganda, xolos, aslida Farida Afro'zning fiqralarida ruhiyat chizgilari sizimlari manzarasi, harakatdan to'xtamagan fikr dinamikasi mavjud. CHunonchi, "ko'ngli cho'kkan odamning elkasida tog' uxlaydi" fiqrasini

shunchaki hayotiy kuzatish yoki fikriy to'xtam deb bo'lmaydi. CHO'kkan ko'ngil haqidagi o'y o'quvchiga ham o'tib uni bezovta qiladi. YOxut "ummoni bor odam qizg'onmaydi" fiqrasida ham harakatdan to'xtamagan ruhiy holat suvratlangan. "Boyning axmoqligi erish tuyilar ekan, odamga qashshoqning donoligi kabi ..." fiqrasi xususida ko'p o'ylash uzoq mulohaza yuritish va turli xulosalarga kelish mumkin.

Farida Afro'z tufayli o'zbek she'riyatiga kirib kelgan "tasbeh"(uchlik)larga kitob muqaddimasida taniqli olim Qozoqboy Yo'ldoshev quyidagicha ta'rif beradi: "Ma'lumki, "tasbeh" janri mumtoz milliy she'riyatimiz tajribasida ham, xalq og'zaki ijodida ham uchramaydi. To'g'ri, o'zbek poeziyasida uchlik bandlardan tashkil topgan she'rlar bor edi. SHuningdek yapon xoykularidan ta'sirlanib yozilgan uchliklar ham bo'lgan. Lekin mustaqil uchliklik tasbehlardan iborat butun bir kitob tartib berilishi va o'ttiz uch tasbeh bir shodaga tizilib, etti she'riy marjon hosil qilinishi milliy poetik tajribamizda bo'lmagan edi."- deydi. SHuningdek olim, "tasbeh" ilgari poetik atama sifatida qo'llanilmagani, shoira Farida Afro'z o'z uchliklarini tasbeh shodasidek tizib, tasbehni she'riy janrga aylantirib badiiylashtirganligini ta'kidlab o'tadi. YApon xokkusi bir shodaga tizilmaydi, shu jihatdan ehtimol "tasbeh" yangi mustaqil janr sifatida adabiyotimizga kirib kelar. Albatta, o'zbek she'riyatida yangi she'riy janrga asos solinishi, uning "tasbeh" deb nomlanishi kitobxonlar tomonidan ijobiy qarshi olinadi.

Ammo bu janr shakli va shamoyili nechog'liq adabiyotshunoslik qonuniyatlariga mosligi soha mutaxassislarining hukmiga havoladir. Binobarin aytish joizki, Farida Afro'z uchliklari she'r ma'noli chiqishi uchun salkam dostondek hajmga ega bo'lishi shart emasligini isbotlab berdi.

Nima uchun shoira to'plamni aynan tasbeh deb nomladi ekan? Nega etti shodaga tizilgan ikki yuz o'ttiz bir tasbeh, hamda to'qson to'qqiz fiqrani to'pladi? O'zbek tilining izohli lug'atida "Tasbeh"(arabcha – maqtash, vasf etish, maqtab ko'kka ko'tarish) Xudoning nomini zikr etib, sanaladigan munchoq shodasi ma'nosini anglatishi bayon etilgan. Har bir tasbeh donasini tashlaganda Tangri nomini zikr etamiz. 33-donada birinchi shoda nihoyasiga etadi. 33 marotaba bir

kalomni takrorlasakda qalbimiz tubidan 33 xil ohang, 33 xil kechinma, 33 xil xayol bilan hosil bo‘ladi. Afro‘z uchliklarida ham shunday holatni kuzatish mumkin. Har bir uchlikning botiniga kira olgan inson Tangrining qudratiga tasanno aytadi. Har bir voqelikda ma’lum bir ishora borligini anglab etadi. Fiqralarning 99 taligi ham tasodifiy hol emas nazarimda. Ollohning 99 nomi borligi gapimizga isbotdir.

Bugungi kunda adabiyot xususan she’riyat lahza sayin o‘zgarib, yangilanib borayapdi, negaki Evropa adabiyoti ta’sirida kirib kelgan modernizm, postmodernizm kabi oqimlar-u, yo‘nalishlar adabiyotimizga yangilanishlarni olib kelayapdi. Farida Afro‘zning “Tasbeh” nomli faqatgina uchlik (xakku) lardan iborat she’riy to‘plami ana shunday yangilanishlar mevasi, misol tariqasida quyidagi misralarni ko‘rib chiqsak.

Men seni aldadim:

“Sevaman!” dedim

O‘zinga esa kuchim etmadi [...].

Adabiyotning bosh maqsadi insonlar ko‘ngliga ezguli va muhabbat urug‘larini ekishdir shakl qanday bo‘lishidan qat’iy nazar yuqoridagi uchlikda mazmun oharli va birlamchidir. Misollardan ko‘rinadiki qaysi tilda bo‘lmasin, qanday shaklda bo‘lmasin adabiyot xususan she’riyat inson qalbining tubidagi ummonni to‘lqinlantirib turadi

Farida Afro‘z o‘z tasbihlarida kam so‘zli misralar yordamida chuqur ma’noni ifodalashga erishadi. SHoiraning bir qator tasbihlari ifodaning ta’sirchanligi, timsollarning yorqinligi, poetik to‘xtamning kutulmaganligi bilan o‘quvchini o‘ziga rom etadi. CHunonchi, shoira bir uchlikda!

Men chivinga hech kim emasman

Qonim ichdi o‘zi, ne iloj?

Qondoshingni o‘ldirib bo‘lmas [...],- deb yozadi. Sirtan beozorgina ko‘ringan bu satrlar zamiridagi qoningni ichib, qondoshga aylangan begona zolimga qarshilik qilish imkonsizligi tufayli tug‘ilgan dardchil kinoyaning g‘oyat o‘ziga xos ifodasini payqashga urinish she’rxonning tafakkur meqiyosini muayyan darajada yuksaltiradi.

Tasbihda hayotiy holat chizilib, izohlangani holda unga munosabat bildirilmaganligi o'quvchi xayolotiga erkinlik beradi. Har bir o'quvchi o'zining intellektual- ruhiy darajasiga qarab she'rning tag ma'nosini o'zi chiqarar. To'g'ri, bu xil imo-ishoralarini barcha o'quvchi ham anglayvermaydi. SHoira ham ichki armonlari, dardu hasratlarini hammaga dasturxon qilmoqchi emas. U bu she'rni, avvalo, o'z yuragi, qolaversa, xoslar ko'ngil izhori sifatida yaratgan.

Farida Afro'zning she'riy so'zida istioralar, majozlar ichinda ko'ngilning oniy kechinmalari - erosti tebranishlari, suvosti titramalari, chaqmoqlari, yomg'irlari-la namoyon bo'ladi. Vaqt-hayajon girdobida ham balandlikda, ham teranlikda shiddat bilan harakatlanadi.

Hovuchimda turmas sharshara,
Hovuchimga to'lmas sharshara,
Jilg'a, buncha tillaring shirin [...].

YOKI:

Odamzod hech narsaga begona emas,
Ishqqa ham,
Qotillikka ham [...].

So'z-shoir yuragiga to'la bo'ysunar ekan, fikr jasoratini tiklaydi, fikr jasorati esa o'ta samimiylilikni talab qiladi. O'zga chora yo'q. Aks holda o'zga yurakka etib bormaydi. SHoir uchun eng og'ir foj'e holat ham shudir, ehtimol. O'ylab qaralsa, erlik ikir-chikirlar emas cheksiz osmon kerak bo'ladi shoirga...

Farida Afro'z tasbehlarining har bandi uch misradan tashkil topgan, misralardagi so'zlar ham ko'p emas. Bu qadar ixchamlik, lekin juda katta mazmunning singdirilishi she'rlarning ta'sirchanligini ta'minlaganligigiga guvoh bo'lamiz.

Olloh mulkida hech narsa sotilmaydi.
Sotguvchi ham - O'zi.
Olguvchi ham - O'zi...[65.92].

Darhaqiqat, o'n sakkiz ming olam barcha -barchasi Alloh mulki. Uni yaratuvchi ham, bu yaratilarning boshqaruvchisi ham Uning o'zi. Hatto aziz-u

mukarram sanalgan insonga jon ato etuvchi ham, uni qayta o'z dargohiga qabul qiluvchi ham Alloh.”Alloh mulki”- dunyo bo'lsa, bu dunyoda “sotuvchi” ham o'zi, xaridori ham o'zi. Demak, bu tasbehda Allohning buyuk qudratiga ishora qilish bilan, dunyoning o'tkinchiligiga urg'u beriladi.

Ishqda hamma narsa go'zaldir,

Ishqda hamma narsa jozibador.

Hatto qotillik ham [65.94]

Ishq - tasavvufiy atamalardan biri. Ishq - nafsga qarshi qurol, ishq bo'lmasa, insonning eng yaxshi fazilatlari ro'yobga chiqmaydi. Shu fikrlardan kelib chiqib, yuqoridagi misralarni tasavvufiy ma'noda tahlil qilganda, ilohiy ishq ko'nglidan joy olgan oshiq uchun undan go'zalroq, undan jozibaliroq, undan sehrliroq hech qanday vosita yo'q. Ishq - bu inson ko'nglini poklovchi vosita. Iroda, mehr, ilm, ibodat, oqillik, xokisorlik, sabr, qanoat, g'ayrat, kamtarinlik, adolat, saxiylik, halimlik, mardlik, hayo, pokizalik, shafqat, umuman, inson qalbini, ruhini poklovchi, uni Allohga yaqinlashtiruvchi barcha ezguliklar tushunilar ekan, ulardan “go'zal”, “jozibador” tuyg'uning o'zi yo'q. Shoira inson ko'nglidagi nafsoniy istaklarni o'ldirishni “qotillik” deb ta'riflaydi. Bu “qotillik” inson vujudidagi noqis xislatlarni tarbiyalab, komillik sari yetaklashdir. Shuning uchun shoira bunday qotillikni go'zal deya ta'kidlaydi.

Zahar ham go'zal ne'matdir,

Sharbat yoxud sharobdek.

Kel ikkimiz ichaylik [65.96].

She'rda tasavvufiy atamalar: zahar, sharbat, sharob ramziy ma'noda qo'llanilgan. Zahar - nafsni o'ldiruvchi vosita. Shuning uchun oshiq uchun “go'zal ne'mat”. Sharbat - Alloh vasliga musharraf bo'lish bilan abadiy hayotga erishish timsolida qo'llanilgan. Sharob - ishq timsoli. Yaratganning ishq bilan kuyib-yonib yashayotgan kishining g'am chekishiga o'rin qolmaydi. Allohni sevgan inson barcha kulfatlarni chetlab o'tadi. Shuning uchun ham shoira uni “ichish”ni, ya'ni iloyiy ishq bilan ko'nglini bezatishni va shu orqali Alloh vasliga musharraf bo'lish g'oyasini ilgari suradi.

Bugun tongda tirik uyg`ondim,
Bir kosa suv ichdim...
Shukur...[65.106].

Farida Afro`z yuqoridagi tasbehida juda qisqa, oddiygina, lekin kishini mushohada qilishga undovchi takrorlanmas ruh bor. Tasbehda umr haqida, vaqtning g`animatlighi, insonga berilgan fursat va imkoniyatlarga shukur qilib yashash g`oyasi balqib turibdi. Darhaqiqat, inson taqdiridga shukur qilib yashamog`i lozim. Chunki hali u tirik, demak, bilib-bilmay qilgan gunohlariga tavba qilish, qanchadan qancha insonlarga yaxshilik qilish imkoni bor.

Farida Afro`z tasbehlarida ham tasavvuf ta`limotidagi asosiy mavzulardan biri - nafsga qarshi kurash g`oyasi ham o`z ifodasini topganligini ko`rishimiz mumkin:

Bir ishning guvohi bo`ldim:
Nafs bilan isyon urishib qolishdi,
Tavbaning to`yida [65. **Tasbeh211**

Inson vujudidagi eng yovuz dushman nafsdur. Tavba esa gunohlardan poklanish demak. SHoira chiroyli manzara yaratgan. Tavba yo`liga kirgan inson nafs g`ulg`ulasidan qutilish uchun unga qarshi kurashishi kerak. Bu kurashning boshlanishi esa tavbadir. Farida Afro`z bu bilan inson bir umr nafsga qarshi isyon qilmog`i, bu bilan o`z vujudini gunohlardan saqlamog`i lozimligiga e`tibor qaratadi.

Yirtqichlar haqida ko`p eshitdik,
O`rmon-u to`qay, dasht vahshiylari...
Ammo ular biz haqimizda ko`proq biladilar [65.110].

Agar diqqat bilan mushohada yuritilsa, tesbehda qalamga olinayotgan “yirtqichlar” “o`rmon-u to`qay, dasht vahshiylari” bu bizning son-sanoqsiz nafsoniy istak, mayllarimiz. Nafs ichki, lekin juda katta dushman, u shaytoniy bo`lib, haqiqatan “biz haqimizda ko`proq biladilar”. Navoiy bu haqda shunday yozadi:

Qaysi ishdinkim yetar nafsingga kom,

Topar ondin komini shayton mudom.

Ya'ni qaysi ishdan nafsning murodi hosil bo'lsa, undan doim shayton ham murod - maqsadiga erishadi. Qalbimizni, ruhimizni shayton murodi maqsadiga erishishiga sababchi bo'ladigan nafsdan yiroq tutishish lozimligi uqtiriladi.

Tasavvuf ta'limotida ko'ngil ulug'lanadi. Boisi, u Alloh jilvagohi. SHu ma'noda ijodkorlar ko'ngil timsoliga murojaat qilish orqali insonning ulug'ligiga, uni Allohning eradagi xalifasi ekanligiga ishora qiladir. Farida Afro'z quyidagi tahbehida esa, inson ko'nglining cheksizligiga ishora qiladi:

Quyoshga chiqmoqqa yo'l ham topilar,

Yer sharini gir aylanmoq oson-

Ko'ngilning tubiga yetmoqdan ko'ra. [...] **Tasbeh206**

Xulosa qilib aytganda, Farida Afro'z tasbehlari insonni ruhan yuksalishga, qalban tozarishga boshlaydi. Xuddi Allohga hamd - sano, shukronalik sifatida aytiladigan tasbehga o'xshab. Har bir tasbeh donasini tashlaganda Tangri nomini zikr etamiz. 33 donada birinchi shoda nihoyasiga etadi. 33 marotaba bir kalomni takrorlasak-da qalbimiz tubidan 33 xil ohang, 33 xil kechinma, 33 xil xayol bilan hosil bo'ladi. Afro'z uchliklarida ham shunday holatni kuzatish mumkin. Har bir uchlikning botiniga kira olgan inson Tangrining qudratiga tasanno aytadi. Har bir voqelikda ma'lum bir ishora borligini anglab etadi. SHoira o'z botinidagi sirli jarayonlarni yorug' dunyoga olib chiqqanda so'zlarni ohorli va rangin, xushbichim va tarovatli liboslarga burkaydi.

BOB BO'YICHA QUYIDAGI XULOSALARGA KELINDI:

1. Iymon butunligi va e'tiqod salomatligi badiiy tafakkurning ustivor yo'nalishiga aylandi. YOrug'lik bilan qorong'ilikning boqiyiligiga ishonch, yagona Allohga bo'lgan e'tiqod, uning O'zigagina ibodat qilish, yolg'iz Allohdan imdod so'rash, iymon keltirish she'riyatimizdagi diniy axloqning vijdoniga aylanib bormoqda. Fikr, SHukr, Zikr ilohiy mazmunning mehvarini tashkil

etmoqda. Buni biz Jamol Kamol, S. Sayyid, Farida Afroʻz ijodi mioslida kuzatishimiz mumkin.

2. Ular yaratgan yangi lirik qahramonlar oʻzini ruhiy-maʼnaviy jihatdan qayta qurayotgan shaxs sifatida dini islom, tasavvuf gʻoyalariga, uning estetik mezonlariga katta hurmat bilan qaraydi. Ulardan ruhiy ozuqa olmay turib yangi davrning komil insoni boʻlishi mumkin emasligini ham chuqur anglab etadi.

3. Jamol Kamol, S.Sayid, Farida Afroʻz kabi shoirlarning diniy-tasavvufiy sheʼrlarida islomiy gʻoyalar chiroyli badiiy tasvirlarda beriladiki, bu yangi davr qahramonining ruhiy-maʼnaviy tozarish jarayonlarini boshdan kechirayotganligini koʻrsatadi.

4. Ozod SHarofiddinov sheʼr chinakam yuksak poeziya darajasiga koʻtarilishi uchun individual uslub va stillarning rang-barangligi, boyligiga erishmoq zarur, deb hisoblaydi. Aytmoqchimizki, biz tadqiq obʼekti sifatida tanlagan ijodkorlarimizning oʻz individual uslubi shakllanib ulgurgan edi. SHuning uchun ularni oʻzbek sheʼriyatining yirik vakili sifatida eʼtirof qilishiimz mumkin.

XULOSA.

Tasavvuf she'riyati-majoziy she'riyat. Unda tadbqiq etilgan ifoda vositalari, istiloh va timsollar she'ning g'oyaviy-badiiy tarkibini ochishga xizmat qiladigan yoki yordam beradigan "belgi", "ko'rsatkich" vazifasini ado etadi. Va ular asl ma'nosida she'rxongga fikriy va hissiy yangilik hech payt zohirdamas, botinda bo'ladi.

Tasavvuf din bo'lmaganidek, dinsizlik ham emas. Tasavvuf dindorni ham, dahriyni ham, musulmonni ham, xristianni ham, xullas, dini, millatidan qat'iy nazar, barcha kishilarning Alloh ishq va go'zalligiga yo'naltiruvchi bir erkin maslakdir. Hamma nufuzli dinlarning "poytaxti"da bitta sulton-Alloh hukron. Xuddi shu ma'noda bugungi kun adabiyotimizda ham ko'pgina mavzularida murojaat etiladigan tasavvuf ta'limoti qay yo'sinda anglanyapti degan savolga javob izlanishi muhim. Islomiy ta'sirida shakllangan adabiyotimizda tasavvufga murojaat etish tabiiydir.

Mustaqillik davri she'riyati insondagi eng oliy narsa-ruhni, uni jilvakor olamini kuylash sari bordi va buni turli nuqtalardan turib amalga oshirdi. Bu davr she'riyatidagi badiiy izlanishlarni kuzatish asnosida quyidagilarga guvoh bo'lish mumkin. So'nggi yillar she'riyatida o'ziga xos uslubda qalam tebratayotgan, ayniqsa, boshqa shoirlardan farq qilib she'riyatida tasavvuf ohanglariga qayta-qayta murojaat etadigan ijodkorlar A. Oripov, S. Sayyid, J. Kamol, Farida Afro'z ijodini kuzatish va tahlil qilish asnosida ishning boblaridagi bildirilgan fikrlarga tayanib, biz qo'yidagi xulosalarga keldik.

1. Har bir qalamkash o'zidan oldin yashab ijod etgan adiblardan, o'zigacha mavjud bo'lgan adabiy meros va an'analardan o'ziga xos tarzda ijodiy foydalanadi. Ta'bir joiz bo'lsa, ijodkor uchun bu o'ziga xos ilhom manbai bo'ladi. XX asrning so'nggi yillarlari she'riyati shoirlarning jahon ilg'or adabiy yo'nalishlari tajribalaridan, mumtoz she'riyatni o'zlashtirishdan tashqari, shu davrda tug'ilgan imkoniyatlarning namoyon bo'lishi A. Oripov, S. Sayyid, J. Kamol, Farida Afro'z ijodi misolida kuzatildi.

2. O'zbek klassik adabiyoti namoyandalari ijodidan bahra olish natijasida A.

Oripov, S. Sayyid, J. Kamol, Farida Afro‘z kabilar ijodida zamonaviy she‘riyatga xos insonni, dunyoni, o‘z zamonasini barcha sir-asrorlarigacha poetik idrok etishga intilish tendensiyasini ko‘zga tashlanadi.

3. Mazkur ijodkorlar she‘rlarida tavba, istig‘fora da‘vat, ruhni poklashga undovchi tuyg‘ularni ifoda qilish bilan birga, hasad adovat, kin, g‘iybat, xiyonat, ta‘ma kabi axloqiy illatlarning chuqur badiiy tahlili shu darajada tarzda amalga oshirildiki, natijada o‘zbek she‘riyatida umuminsoniy va milliy tamoyillarning chuqurlashuviga sezilarli ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan.

4. Ijodlari tahlil qilingan qalam sohiblarining she‘rlarida yoritilgan olingan mavzu, voqealarga emas, balki ifoda usuliga alohida e‘tibor berildi va she‘rlaridagi tasavvufona ohanglarni berishdagi o‘ziga xoslik tahlilgan tortildi.

5. Ularning she‘rlarida tasavvufona ruh, ko‘ngil asrorini kashf etishga urinish, dilni qat-qatiga berkingan ilohiy tuyg‘ularni uyg‘otish va ularga shoirning badiiy munosabati she‘rlari misolida tahlil qilib o‘tildi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy she‘riyatdagi ijodiy izlanish, yangilanish jarayonlari kechmoqda. Ma‘naviy madaniyatimiz, shu jumladan she‘riyatimiz ham o‘zining azaliy va abadiy o‘zanlariga qaytdi. Diniy merosga, diniy-axloqiy g‘oyalarga tayanish-ma‘naviyat kamolotiga xizmat qilishi shubhasiz. U olamni, uning gultoji sanalmish Odamni to‘kis bilishga va shu asosda, barchasining ijodkori Qodir egamni tanishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. Rasmiy hujjatlar, manbalar va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.

Karimov asarlari:

1. Karimov I.A. YUksak ma’naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008.
2. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor // O‘zbek tili va adabiyoti, 2009, №4.–B. 3-11.
1. Karimov I. Mustaqil O‘zbekiston XXI asr ostonasida.T.: “O‘zbekiston”, 2011.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo’sag‘asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. . –T.: O‘zbekiston, 1997.
3. Karimov I. A. Alloh qalbimizda, yuragimizda. –T.: O‘zbekiston, 1997.
4. Barkamol avlod orzusi (“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish borasidagi mulohazalar). –T.: “SHarq” nashriyot-matbaa konserni, 1998.
5. “Ta’lim to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining qonuni. Oliy ta’lim me’yoriy hujjatlar to‘plami. –T.: “SHarq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniya bosh tahririyati, 2001- 3-15- betlar .

II.Monografiya, risola va o‘quv qo‘llanmalari:

6. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik / M.Nurmuhammedov tahriri ostida. 2-tom. – T.: Fan, 1979.
7. Axloq-odobga oid hadis namunalari. –T.: “Fan”, 1990.
8. Afoqova N. Abdulla Oripov lirikasida badiiy san’atlar. –Buxoro, 1994.
9. Bertels. Navoiy va Jomiy.
10. Bushmin A. Nauka o literature. -M., 1980.
11. Valiev B. Inson va tabiat madhi (SHoir A.Oripov she’rlarida inson va tabiat masalasi) Adabiy meros. -1982. -№ 4 (24).
12. Imom Buxoriy. Al jomi-as-sahiyh. II tom. Qomuslar bosh tahririyati. –T.: 1997.
13. Imom Al-Buxoriy. Al-jomi’ as-sahih. 4-jild. . –T.: Qomuslar bosh tahririyati.–T.: 1997.

14. Karomatov H. Qur'on va o'zbek adabiyoti. –T.: 1997.
15. Karimov N. Hikmat sadolari // O'zbekiston ovozi. -1992. -29 yanv.
16. Karimov H. «Istiqlol davri she'riyati» «Zarqalam». –T.: 2005.
17. Karimov Hakimjon. Istiqlol - baxtim, saodatim...: darslik.O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent. davlat pedagogika universiteti. 2010.
18. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. –T.: YOzuvchi, 1996.
19. Mamajonov S. Uslub jilolari. -T.: Adabiyot va san'at, 1972.
20. Muhammad Sodiq Muhammad YUsuf (I). Imon.-T.: "SHarq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.2003
21. Norboev B. Istiqlol va iste'dod tarbiyasi. -T.: O'qituvchi, 1996.
22. O'rta Osiy xalqlari hurfikrligi tarixidan. Toshkent, 1990.
23. Qarshiboev M. Noma'lum odam. –T.: Ma'naviyat 1997.
24. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Abdulaziz Mansur tarjimasi. –T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot - matbaa birlashmasi. 2004.
25. Qo'shjonov M., Suvon Meli. Abdulla Oripov. – Toshkent, Ma'naviyat, 2000. - B. 136.
26. G'afurov I. Dil erkinligi. -Toshkent, 1998. – 130 b.
27. Hamdam Ulug'bek. YAngilanish ehtiyoji. – T.: Fan, 2007. - 196 b.
28. Haqqulov I. Irfon va idrok. - T.: Ma'naviyat, 1998.
29. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
30. Haqqul I. Zanjirband sher qoshida. - Toshkent, 1989.

III. Gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalar, dissertatsiya va ma'ruza matnlari

31. Afoqova N. SHe'r, hadis, hikmat// O'zbekiston adabiyoti va san'ati. - 1994. -3 iyun.
32. Mirzo. G'. Xotiralar sochar muhabbat . "Sharq yulduzi", 1999, 6-son. 33-36 betlar.
33. Karimov N. Hikmat sadolari. //O'zbekiston ovozi. – 1992. – 29 yanv.

34. Nazarov B. Abdulla Oripov haqida// SHarq yulduzi. - 1997. -№11. -B. 154-162.
35. Nazarov B. Sevinch dardim - bari Vatanim// SHarq yulduzi. -1997. -№11.
36. Normatov U. Dunyoni yangicha ko‘rish ehtiyoji. Jahon adabiyoti, 2002 yil, 12-son.
37. **Rahimjonov N.** Diniy-axloqiy g‘oyalarning badiiy talqinlari // O‘zbek tili va adabiyoti. 2002. – 5-son.
38. **Rahimjonov N.** Mustaqillik davri she‘riyatining etakchi xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti. 2001. – 3-son.
39. **To‘lakov M.** Davr, lirik qahramon va badiiyat qirralari. //O‘zbek tili va adabiyoti, 1993. – 5-6-sonlar. – B. 13-18;
40. **Xoliyorov M.** Badiiylik asosiy mezon. //O‘zbek tili va adabiyoti, 1993. – 1-son. – B. 57-61;
41. **Sharipova L.**O‘zbek she‘riyatida uchlik janri- O‘zbek tili va adabiyoti.- Toshkent.-2014 - №4.-B.52-57.
42. **Qaipbergenov T.** Zar qadrini zargar bilar // Amu tongi. -1999. - 16 yanv.
43. **Hamdamov A.** Abdulla Oripov she‘riyatida insoniylik talqiniga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. - 1998. - №2. -B. 43-45.
44. Haqqulov I. Ibrat va mahorat maktabi. (G‘.G‘ulom va Abdulla Oripov she‘riyati munosabatiga doir) // O‘zbek tili va adabiyoti. –T.: 1983. 4-son.

IV. Badiiy adabiyotlar:

45. Abdullo Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. . –T.: 1992.
46. Jamol Kamol. Saylanma. Asr bilan vidolashuv. –T.: “Fan”, 2007.
47. Jamol Kamol. Saylanma. –T.: “Fan”, 200...
48. Jamol Kamol. Safar daftari. –T.: “Tamaddun”. 2012.
49. Oripov A. Ehtiyoj farzandi. -T.: YOsh gvardiya, 1988.
50. Oripov A. Ishonch ko‘priklari. -T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1989.
51. Oripov A. Sen bahorni sog‘inmadingmi? -T.: YOzuvchi, 1991.
52. Oripov A. Tanlangan asarlar. 1-tom. -T.:Adabiyot va san‘at nashriyoti,2000.
53. Oripov A. Tanlangan asarlar. 2-tom. -T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2001.

54. Oripov A. Tanlangan asarlar. 3-tom. -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.
55. Oripov A. Tanlangan asarlar. 4-tom.-T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.
56. Orif A. Haj daftari. -T.: Murod firmasi. 1992.
57. Oripov A. Men nechun sevaman O'zbekistoni. -T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi. 2006.
58. Mirzaeva. Z. "Nur kukunlari" . -T.: "YAngi asr avlodi" 2004.
59. Ro'zimuhammad Bahrom. Soyalar suhbatlari. She'rlar. -T.: Zarqalam nashriyoti. 2006.
60. Sirojiddin Sayyid. Dil fasli. -T.:.....2007.
61. Sirojiddin Sayyid. So'z yo'li. 1-kitob. -T.:2008.
62. Sirojiddin Sayyid. So'z yo'li. 2-kitob. -T.:..... 2008.
63. Sirojiddin Sayyid. YAshasin yomg'irlar. -T.:2007.
64. Sirojiddin Sayyid. Ko'ksimdagi zangorlarim. -T.: Ma'niviyat.2004.
65. Farida Afro'z. Tasbeh. -T.: "SHarq" nashriyoti. 2007.
66. Farida Afro'z. O'zimdan o'zimgacha. -T.:SHarq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2013.
67. SHayx Aziziddin Nasafiy. Zubdatul-haqoyiq // Tafakkur. – Toshkent, 1997. - 5-son.

V. Lug'atlar va ensiklopediyalar:

68. Abduqodirov A. Tasavvuf istilohlarining qisqacha izohli lug'ati. - Xo'jand, 2000.
69. Abdulla Oripov. Ranglar va ohanglar.-T.:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti,2012.
70. CHori I. Tasavvuf lug'ati // Tafakkur. – Toshkent, 1997. - 1-son.
71. O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006.
72. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004.

